

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

Musiqa, badiiy grafika mehnat ta’limi fakulteti
«Kasbiy ta’limni o‘qitish metodikasi» kafedrası

Ikramova Hokima

«Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni
kasb tanlashga yo‘llash»

5142000- mehnat ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Ish ko‘rildi va himoya
qilishga ruxsat berildi

kafedrası mudiri

dots. B.Muranov _____

«_____» _____20__y.

Ilmiy rahbar p.f.n. dots.

_____B.I.Muranov

«_____» _____20__y.

Taqrizchilar: p.f.n. dots.

_____ B.Doniev

p.f.d. professor.

_____O‘.K.Tolipov

«_____» _____20__y.

SAMARQAND-2014

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

Musiqqa, badiiy grafika mehnat ta’limi fakulteti
«Kasbiy ta’limni o‘qitish metodikasi» kafedrası

4-kurs talabasi Ikramova Hokima

«Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni
kasb tanlashga yo‘llash»

5142000- mehnat ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar p.f.n. dots.

B.I.Muranov

Bitiruv malakaviy ishi «Kasbiy ta’limni o‘qitish metodikasi» kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil 28 may dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri

dots. B.Muranov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2014 yil “_____” _____ dagi majlisida himoya qilindi va _____ ball bilan baholandi (bayonnoma № _____).

YaDAK raisi: _____

A’zolari _____

Samarqand-2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
BOB. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda KASB TANLASHGA YO'LLASHNING NAZARIY MASALALARI	
§1.1. Adabiyotlar tahlili.....	6
§2. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb tanlashga yo'llash ishlarining mazmuni	16
II BOB. DARSDAN TASHQARI MASH/ULOTLAR JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH ISHLARINING YO'NALISHLARI	
§1. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb tanlashga yo'llashning shakl va metodlari	25
§2. Ekskursiya o'tkazishda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash	35
§3. To'garak mashg'ulotlari va turli madaniy umumiy tadbirlar o'tkazishda kasbga yo'llash	41
IV. XUL O S A	47
V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	48

K I R I S H

Muammoning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy modeli davlatimizning istiqbolli taraqqiyotini taminlovchi asosiy omillardan biri sifatida jahon ommasi tomonidan etirof etilmoqda. O‘z navbatida «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»ning qimmatini unda har bir shaxsni jamiyat ehtiyojiga javob beruvchi kasb egasi qilib tarbiyalashga asosiy etibor qaratilganligi bilan belgilanadi. Ushbu asnoda kasb tanlashga yo‘llash ishlarining samarali yo‘lga qo‘yilishi talim islohotlari muvaffaqiyatini ta‘minlovchi muhim mexanizm vazifasini o‘taydi.

Mehnat talimi umumiy o‘rta talim muassasalari o‘quv fanlari qatorida kasb tanlashga yo‘llash ishlarini yo‘lga qo‘yishda eng qulay imkoniyatlarga ega. Ushbu imkoniyatlar asosan mehnat talimidan umumiy o‘rta talim o‘quv dasturining 8-9 sinflari uchun ko‘zda tutilgan «Kasb yo‘naltirish asoslari» kursida hamda darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Qayd etilgan ta‘lim shakllaridan ko‘zda tutilgan maqsad o‘quvchilarni shaxsiy sifatleri va salomatligiga, respublikamiz va mahalliy-hududiy sharoitga mos keluvchi kasbni to‘g‘ri tanlagan holda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o‘qishga yo‘naltirishdan iborat.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kasb tanlashga yo‘llash ishlarining vazifalari keng qamrovli bo‘lib, u asosan o‘quvchilarni quyidagi bilimlar bilan qurollantirishni ko‘zda tutadi:

kasblarni tanlash maqsadi, shart-sharoitlari, kasblar tasniflagichi;

kasb tanlash formulasi, kasbiy tavsifnoma;

O‘zbekistondagi kasblar turkumlari: Odam-odam; Odam-texnika; Odam-tabiat; Odam-badiiy obraz. Kasbiy ma‘orat asoslari.

kasb-hunar yo‘nalishini tanlashda qiziqish, moyillik, qobiliyat; kasbiy yaroqlilikning ahamiyati.

Hududiy, jug'rofiy, mahalliy sharoitlardan kelib chiqib o'rta maxsus, kasb-hunar talimi muassasalarida o'zlari qiziqqan sohalar yo'nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o'qish yo'nalishini) ixtiyoriy tanlashga tayyorlash; sog'ligi tanlagan kasbiga mos kelish-kelmasligini hisobga ola bilish; kelgusi kasbiy hayot yo'lini ongli tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Kasb tanlashga doir shaxsiy rejaning mazmuni, bo'limlari, vazifasi, kasbga tayyorgarlikni sinab ko'rish va kasb mahoratini oshirish usullari, vaqti, joyini belgilash, tuzatishlar kiritib borish, kasb tanlashda yuzaga keladigan xato va qiyinchiliklar sababini tahlil qilishni bilish;

aholini ish bilan taminlash, bandlik, mehnat bozori, mehnat bozorida raqobatbardoshlik tushunchalarini bilishi; kasb tanlashda onglilik va mustaqillik. O'z-o'zini tarbiyalash va kasb tanlashning mohiyati. Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish. O'zi xohlagan kasb yaroqli ekanligini aniqlash, o'z ruhiyatidagi kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini bilish;

Kasbga yo'naltirish Markazlari va o'quv yurtlarining tasnifini bilish. Diagnostik kasb maslahatidan foydalanishni, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilari bo'lgan talabalarni, ularning bir-biridan farqini bilish.

Demokratik tamoyillar asosida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lib borayotgan mamlakatimizda ta'limning barcha shakllari qatorida darsdan tashqari mashg'ulotlar ham o'quvchi shaxsi shakllanishida erkinlikni ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari asosida o'quvchilar kasbiy tayyorgarligi metodlarini darsdan tashqari mashg'ulotlar misolida ishlab chiqilishi amalga oshirilgan bitiruv ishining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot ob'ekti: O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb tanlashga yo'llash ishlarini tashkil qilish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkillashtiriladigan darsdan tashqari mashg'ulotlari jarayonida kasb tanlashga yo'llash ishlarini takomillashtirishning metodlari, mazmuni va yo'nalishlari.

Tadqiqot maqsadi: darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida kasb tanlashga yo'llash ishlarini takomillashtirishning metodlari, mazmuni va yo'nalishlarini o'rganish asosida uning samaradorligini oshirish va takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalar** amalga oshirildi:

Ta'lim islohotlari sharoitida darsdan tashqari mashg'ulotlarni takomillashtirish omillarini tahlil qilish.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarni kasbga tayyorlash jarayonida darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'rni asoslab berildi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish metodikasi ishlab chiqildi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarni takomillashtirishning tashkiliy-metodik yo'nalishlarini aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati, yangiligi quyidagilardan iborat:

1. O'quvchi – yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirishda qo'llaniladigan samarali shakllar aniqlanadi.
2. Tuguruk, ekskursiya, sayohat darslarining ta'limiy imkoniyatlar anqlanadi.
3. Dars mashg'ulotlarining ham, interfaol ko'nikmalarini ham kasb tanlashdagi o'rni belgilandi.
4. Konferensiya, munzara dars, morfologik jadval, boshqotirmalarning dars va darsdan tashqari vaqtlarda qo'llash texnologiyalari ko'rsatib beriladi.

Amaliy ahamiyati: Boshqaruv ma'naviy ishlarda ilgari surilgan fikr-mulohazalar uzluksiz ta'limning umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus kaab-hunar o'quv yurtlarida, oliy o'quv yurtlarida keng qo'llanilmoqda. O'qituvchilar, o'quvchilar, rahbarlar, talabalar, murabbiylar, ustozlar, ota-onalar ko'plab foydalanadilar.

Tajriba sinov ishlari Samarqand shahridagi 1-son pedagogika kollejida 2014 yil 11-yanvardan 2014 yil 5-aprelgacha bo'lib o'tdi. Tajriba-sinov ishlariga

Samarqand shahridagi 1-son pedagogika kollejida 2014 yil 11-yanvardan 2014 yil 5-aprelgacha bo'lib o'tdi. Tajriba-sinov ishlariga 25 nafar 302 guruh, 24 nafar 202 guruh, 26 nafar 301 guruh kollej o'qchilari jalb etildi.

Qo'llanilish sohasi. Umumta'lim maktablarining va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish darslari, darsdan tashqari mashg'ulotlarida qo'llanishi shart-sharoitlari, yo'llari ko'zda tutilgan.

I BOB. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb tanlashga yo'llashning nazariy masalalari

§1.1. Adabiyotlar tahlili. Yoshlarga turli kasblar, hunarlar o'rgatish har bir davrda, har bir davlatda o'ziga xoslikni namoyon etib kelgan. Yoshlarning mehnat, kasblarga tayyorgarligi muammolarini yoritishning turli xil masalalari bo'yicha mamlakatimiz pedagog olimlari ham turli xil sohalarni tadqiq qilish bo'yicha shug'ullanmoqdalar.

Bu borada olib borilayotgan tadqiqotimiz davomida ilmiy pedagog adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mehnat ta'limi va tarbiyasi berish muammolari bilan Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Mehnat talimidan umumiy o'rta talim maktablari uchun davlat talim standartlari, "Ta'lim tarakkiyoti" , Mehnat ta'limidan umumiy o'rta talim maktablari uchun dastur. "Ta'lim taraqqiyoti" O'.Q.Tolipov, D.N.Razzoqov, Q.Bobojonova, Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat talimidan davlat talim standartini amaliyotga joriy etish, Q.Tolipov, Umumiy o'rta talim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish, U.N.Nishonaliev, O'.Q.Tolipov, SH.S.SHaripov, M.SHoymardonov. Vorobev A.I. Mehnat politexnika talimi didaktikasi, Davlatov K.D. Me'nat va kasb talimi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi Karimov I. Qishloq o'quvchilariga mexanizatorlik kasbini o'rgatish, Usmonov S.A. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish. Boltaboev S., Mullaxmetov R.G., V.N.Sattorov. Kasb tanlashgR.A.Mavlonova, qishloq maktablarida yoshlarga mehnat tarbiyasini berish masalalari bilan E.T.CHoriev, O.Hayitov, o'rta maxsus o'quv yurtlarida kasb ta'limi pedagogik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha Ya.Haydarov, hunar ta'lim bilim yurtlarida ishchi kadrlar tayyorlash muammolari bo'yicha P.T.Magzumov, kasb-hunar ta'limini bozor iqtisodiyoti jarayonida tashkil etishni takomillashtirish bilan R.X.Jo'raev, pedagogika oliy o'quv yurtlarida mehnat ta'limi o'qituvchilari tayyorlashning psixologik-pedagogik muammolari va istiqbollarini yoritish bo'yicha

U.N.Nishonaliev, talabalarni o'quvchilarning unumli mehnatiga rahbarlikka tayyorlash bilan N.S.Saidahmedov, mehnat va kasb ta'limining metodik ta'minoti bo'yicha A.R.Xo'jaboev, pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarni, o'quvchilarning kasb tanlash ishlarini o'rgatish bilan N.SHodievlar ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. Q.O. Mustafoev, K.Davlatov, J.Ramizov, B.Muranov, O.Abduquddusov, I.Karimov, N.Muslimov, A.F.Antonov, U.Tolipov, T.Xolmurodov va boshqa olimlar mehnat, ishlab chiqarish, kasb-hunar pedagogikasining turli masalalari bo'yicha izlanishlar olib bordilar, hamda tadqiqotlari natijalarini monografiya, o'quv qo'llanma, tavsiyanoma, maqolalar tarzida chop ettirdilar hamda dissertatsiyalar qo'rinishlarida muvoffaqiyatli himoya qildilar.

O'.Tolipov respublikamiz umumiy o'rta ta'lim matablarida mehnat ta'limidan Davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish yo'llari hamda mehnat ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni amalga oshirishni yoritadi.

Davlat ta'lim standartida mehnat ta'limining maqsadi quyidagicha belgilangan:

- o'quvchilarda umummehnat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, kasbiy moyilliklariga ko'ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan xislatlarini, umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- xalq xo'jaligining turli sohalari, ularda ishlatiladigan texnika va texnologiya to'g'risida bilimlar berish, mehnat faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratish, ularni xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalariga o'rgatish;
- yuqori sinflarda mehnat ta'limida ishchi mutaxassisliklarning kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan turli xil asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalardan foydalanishni o'rganish;
- mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, texnologik bilim va malakalarni, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiena qoidalari asoslarini o'rganish;
- turli ishlab chiqarish sohalari mazmuniga taaluqli dastlabki ma'lumotlarni o'rganish, o'lchash-tekshirish asboblaridan, ma'lumotnomalardan foydalana olish, mehnat amaliyotlarini bajarish, olingan natijalarni qo'yilgan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarishga o'rgatish;
- o'quvchilarga bilimga intilish va mehnatga muhabbat, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari asosida sifatli, raqobatdosh iste'mol mollari, mehnat mahsulotlari etishtirishga va etishtirilgan mahsulotlarni istemolchilarga etkazish vositalarini o'rgatish, ish boshqaruvchi unsurlarini, homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirib borish va rivojlantirish;
- xalq hunarmandchiligi kasblarini o'rganish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish, milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o'rgatish va ulardan o'z amaliy faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash;

-mehnat ta'limi va kasbga tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalar va kompyuter texnikasi, yangi texnologiya va jihozlarning qo'llanilishi sohalarini Ushbu maqsadlarga erishish yoshlarni mehnat va kasbga tayyorlash muammosini hal etishning o'rta bo'g'ini hisoblanadi.

Navbatdagi bosqichda kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda quyidagi masalalar hal etiladi:

- kasblarni tanlash maqsadi, shart-sharoitlari, kasblar tasniflagichi. Kasb tanlash formulasi, kasbiy tavsifnoma. O'zbekistondagi kasblar turkumlari: odam-odam; odam-texnika; odam-tabiat; odam-belgilar tizimi; odam-badiiy obraz. Kasbiy mahorat asoslari. Kasb-hunar yo'nalishini tanlashda qiziqish, moyillik, qobiliyat, kasbiy yaroqlilikning ahamiyati bilan bosqichma-bosqich tanishtirib borish.

- o'quvchilarning hududiy, geografik, mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalarida o'zlari qiziqkan sohalar yo'nalishini ixtiyoriy tanlashlariga yordamlashish. Sog'ligi tanlagan kasbga mos kelish-kelmasligini hisobga olish.

Kelgusi kasbiy hayot yo'lini ongli tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quvchilarni mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish fanidan: bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning yaxshi yashashida, faoliyatida to'g'ri kasb tanlashning ahamiyatini turli xil kasblarning insonga qo'yadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajarasi, o'zbekiston xalq xo'jaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi; kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi; kasblar, mehnat shart-sharoitlari, vositalari, predmeti, maqsadi bo'yicha shajaralanishi, o'quvchilarni o'z qiziqish va moyilliklari, o'z xarakterining o'ziga xos xususiyatlarini, o'z nerv tuzilishi, psixikasi, o'z qobiliyati va ehtiyojlarini kasblar to'g'risida ma'lumot olish maktablarini ayrim kasb mehnat bozori talablari asosida ehtiyojning o'zgarib borishini, salomatligining tanlagan kasbga mos kelishi, hududda joylashgan o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlashi; o'qishni davom ettirish imkoniyatlari, kelgusi mavqeini bilishi zarur.

O'quvchilar kasblarni tahlil qila olishi; o'zlarining shaxsiy sifatlarini, qiziqishini va salomatlik darajalarini to'g'ri baholay olishlari, kasblarning insonga

qoʻyadigan talablari bilan oʻzlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari, shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishlari zarur.

Oʻquvchilarning egallashlari lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar mezonlari quyidagicha ifodalanadi:

Kasblar tasnifi, ularning asosiy turkumlariga xos umumiy xususiyatlarini bilish.

Kasb tanlashda talab qilinadigan shart-sharoitlar bilan shaxsning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlarining oʻzaro muvofiqligini aniqlash usullarini bilish.

Kasb tanlashga doir shaxsiy rejaning mazmuni, boʻlimlari, vazifasi, kasbga tayyorgarlikni sinab koʻrish va kasb mahoratini oshirish usullari, vaqti, joyini belgilash, tuzatishlar kiritib borish, kasb tanlashda yuzaga keladigan xato va qiyinchiliklar sababini tahlil qilishni bilish.

Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik. Oʻz-oʻzini tarbiyalash va kasb tanlashning mohiyati. Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish. Oʻzi hohlagan kasbga yaroqli ekanligini aniqlash, oʻz ruhiyatidagi kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini bilish.

Kasbga yoʻnaltirish markazlari oʻquv yurtlarining tasnifini bilish. Diagnostik (tashhisli) kasb maslahatidan foydalanishni, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning oʻquvchilariga boʻlgan talablarini, ularni bir-biridan farqini bilish.

YUqorida zikr etilganlar kasbga yoʻllash ishlarining maqsadi va mazmunini belgilaydi. Talabalar maktabda mehnat va kasb taʼlimini amalga oshirishga tayyorlanar ekanlar ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish yoʻllarini, shakllarini, uslublarini nazariy va ilmiy yoʻnalishlarini egallab olishlari zarur.

SHahar va qishloq kasbga yoʻllash markazlarining asosiy vazifalari yoshlarni mehnatga tayyorlashning umumiy maqsadlari bilan bogʻliq.

Bu markazlar quyidagi vazifalarni hal qiladilar.

1. Maʼlumot berish ishlari: professiogrammalar bilan oʻquvchilarni tanishtirish, turli kasblar boʻyicha kadrlarga boʻlgan ehtiyoj haqida maʼlumot berish, mehnat sharoiti haqida, mehnatga haq toʻlash haqida, malaka oshirish imkoniyatlari haqida axborotlar bilan taʼminlash.

2. Eng ko‘p darajada ehtiyoj sezilgan kasblar va kadrlar haqida ma’lumotlarni kasbiy targ‘ibot qilish. Bu maqsadda ommaviy axborot vositalari va maxsus plakatlardan, targ‘ibot qilish ko‘zda tutilgan nashrlar, bukletlar, ma’lumotnomalardan foydalaniladi.

3. Kasbiy diagnostika (tashhis): shaxsiy psixofiziologik xususiyatlarni, qobiliyatlarni, kasbiy qiziqishlarni aniqlash uchun yaratilgan va markazda mavjud bo‘lgan barcha uslublar asosida ma’lum territoriyadagi o‘quvchilarni to‘la sikl bo‘yicha markaz tomonidan diagnostik tekshirishdan yiliga bir yoki ikki marta o‘tkaziladi. Bunda anketa, testlar, tashhis qilish texnik vositalari va olingan ma’lumotlarni EHMda qayta ishlash keng qo‘llaniladi.

4. Kasb tanlash masalasini hal qilishda yoshlarga yordam ko‘rsatish uchun kasbiy maslahatlar beriladi. Bundan tashqari kasbiy maslahat ota-onalar va yoshlarning ustozlari uchun ham beriladi.

5. Kasbga tanlash masalalarini hal etish va osonlashtirish maqsadida ilmiy asoslangan turli tavsiyalar ishlab chiqiladi. Turli kasblarni tayyorlash va ularni region bo‘yicha oqilona joylashtirish uslublarini ishlab chiqadi va amalga joriy etadi.

6. Xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida yoshlarni ishtimoiy va kasbiy moslashishlarini yaxshilash bo‘yicha hamkorlik faoliyatlarini tashkil etadi.

7. Ishlab chiqarish korxonalarida yoshlarni kasbiy tarbiyasi va maktab kasbga yo‘llash kabinetlarini, markazlari, turli kengashlar, barcha davlat va jamoat tashkilotlari kasbga yo‘llash faoliyatlarni o‘zaro muvofiqlashtiradi.

8. Maktab, o‘quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlar kasbga yo‘llash ishlari bo‘yicha faoliyatlari natijalarini tahlil qiladi hamda shu asosida ilg‘or tajribalarni umumlashtiradi va ommalashtiradi.

9. Kasbga yo‘llash ishlari bilan shug‘ullanuvchi ustozlar va pedagoglar malakasini oshirish ishlarini olib boradi.

Kasbga yo‘llash tizimida maktab, o‘quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlar kasbga yo‘naltirish markazlari muhim zveno sifatida qaraladi. Bunday markazlar zimmasiga quyidagi vazifalarni hal etish yuklatiladi:

- turli kasblar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ishchi kasblarni targ'ibot qilish;
- kasbiy diagnostika: yoshlarning qiziqishlarini, kasbiy niyat va maqsadlarini, moyillik va qobiliyatlarni o'rganish;
- yoshlar va ularning ota-onalari bilan kasbiy maslahat ishlarini amalga oshirish. Bu jarayonda kasbiy niyat va maqsadlar aniqlanadi, kasb tanlash bo'yicha tavsiyalar beriladi, tegishli o'quv yurtlarida kasbni egallash, malaka oshirish yo'llari haqida ma'lumotlar beriladi;
- kasbiy diagnostika ma'lumotlari - natijalariga asoslangan holda amaliy jihatdan kasbga tanlash amalga oshiriladi;
- yoshlarni kasbiy tarbiyasini, ularning kasbiy va ijtimoiy moslashuvini amalga oshiradi, o'quv yurtlari o'quvchilarini o'qishga yoki ishga joylashtirish masalalarini hal etadi;
- kasbga yo'llash ishlari samaradorligini tahlil qiladi.

Inson organizmining fiziologik imkoniyatlari bilan unga kasbning talablari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash kasbga yo'llashning yuqorida zikr etilganlar qatori eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifa mehnat fiziologiyasi, xususan yosh fiziologiyasi xususiyatlariga doir ma'lumotlar asosida hal qilinadi. Keyingi 50 yil mobaynida fiziologlar mazkur vazifani hal qilishning turli yo'llarini sinab ko'rdilar. Psixotexniklar 20-30 yillarda bu vazifani hal qilishda testlardan foydalandilar, bunday testlar sifatida ko'p hollarda erkin kasb tanlagan ishchilarga o'z faoliyatlariga yaqinroq topshiriqlar berilgan. Zamonaviy statistika ishlovi bilan to'ldirilgan bu metodni qo'llash chet ellarda hozir ham davom etmokka. Testlar yordamida amalga oshiriladigan kasb tanlash natijalari tadqiqotchilarni ham, ishlab chiqarishni ham etarli darajada qanoatlantirmayotir, testologiya o'zini etarli darajada oqlamaganligining asosiy sababi shuki, testlar yordamida asosan Tekshirilayotgan kishining mazkur kasbdagi mehnat operatsiyalariga tayyorgarlik darajasi aniqlanadi, aslida kasbga yo'naltirish va kasbga yaroqlilikni baholash maqsadida qobiliyatlar va psixofiziologik jarayonlarni aniqlash talab qilinadi. SHuning uchun ham olimlar nerv sistemasining asosiy xususiyatlarini o'rganishga

kirishdilar, alohida shaxslarning psixofiziologik fazilatlarini sinab ko'rish ancha real prognostik qiymatga ega bo'lishi mumkin deb hisobladilar.

Konveyrda mayda detallar yig'uvchi, apparatchi, sirk gimnasti kabi kasblarga kasbiy yaroqlilikni tekshirish vaqtida fiziologik yondoshish muvaffaqiyatli qo'llanadi. Bunda ishchiga aniq talablar qo'yadigan kasblar haqida gap boradi. Lekin hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi kasblarning ko'pi murakkab va xavfli vaziyatlarga yaqindir. Bunday kasblarning eng ko'p tarqalgani dastgohchilardir. Ma'lumki katta yoshdagi dastgohchilar orasida malaka darajasi turlicha ishchilar borki, ulardan faqat ayrimlari yuqori mahorat darajasiga erishadilar, o'z ishining fidokorlariga aylanadilar, ulardan ba'zilar tanlagan kasblaridan pushaymon bo'ladilar, boshqalari esa o'z kasblariga moslashadilar, o'ziga xos ish uslubini hosil qiladilar.

Ish harakatning tegishli uslubi hosil bo'lishini umuman fiziologik tomondan me'yorni o'zlashtirish va mehnat dominatalarining shakllanishi belgilaydi.

Qo'llarni uzatib yuk ko'taradigan kishilar, laboratoriya modeli yordamida aniqlanishicha 10 kg yukni daqiqada 30 marta harakat qilish sur'atiga, 25-30 daqiqa ko'tarib turish qobiliyatiga ega ekanlar. Biroq tekshirilgan shaxslardan ayrimlari ish qobiliyatining berilgan darajasiga juda tez, boshqalari juda sekin erishganlar.

Tekshirilayotgan shaxslarda ishchi harakatlarining tezligi sekundning 40 dan 1 ulushigacha aniqlik bilan, ularning vaqtida makonda taqsimlanishi, turli operatsiyalarni bajarish vaqtida o'ng va chap qo'lining biomexanik sxemasi nuqtalarini aniqlovchi eng ko'p tezlikning ortishi batafsil tekshirib chiqiladi. SHunday qilib, dastgohchining qo'lida eng ko'p tezlik namoyon bo'lgan, harakat to'xtagan va pasaygan vaqt momentlari va nuqtalari aniqlanadi. Bu biomexanik jarayonlar mehnat operatsiyasining bajarilayotgan qismlari bilan bir vaqtda qiyoslab ko'riladi. Natijada shu narsa ma'lum bo'ladiki, dastgohda mehnat operatsiyalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun muayyan daqiqalarda eng ko'p tezlikni rivojlantirish kerak ekan, bundan maqsad to'plangan kinetik energiyadan foydalanib, zarur vaqtda ishlayotgan qo'lni fazoning tegishli nuqtasiga keltirishdir.

Bunday harakatlarni tejamli va tez bajarish uchun nerv uygʻonishi va muskul qisqarishlari vaqt va makonda tanlanishi kerak. "Muskul kuchining bir joyga toʻplash" deb ataladigan tegishli fiziologik jarayon dastgohchilar kasbiy qobiliyatining muhim belgilaridan biridir.

§1.2. Darsdan tashqari mashgʻulotlarda kasb tanlashga yoʻllash ishlarining mazmuni

Kasbga yoʻllash rivojlangan nazariya va metodologiyaga tayangan holdagina uning maqsad va vazifalari toʻla toʻkis muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Bu esa tasodif boʻlmasdan: amaliy ishlar samaradorligini oshirish imkonini beruvchi tushunchalar nazariya va metodologiyasi gʻoyalar, qarashlar, tasavvur, shakllar, uslub va prinsiplar tekshiriladi va yoʻnalishi oʻzgartiriladi.

Kasbga yoʻllash tushunchasi hammaga maʼlumdek tuyuladi, hattoki bu tushuncha bilan birinchi bor tanishayotganlarga ham. Bu oʻquvchilarni u yoki bu kasbga yoʻllashni anglatadi. Kasbga yoʻllashni, yoshlarga kasb tanlashlarida yordam koʻrsatuvchi sifatida qaraladigan metodik qoʻllanmalarda ham xuddi shuningdek talqin qilinadi. Bundan tashqari kasbga yoʻnalishni kasbiy oʻz-oʻzini anglash momentida oʻquvchilarga yordam berish, kasbiy yoʻnalishni rivojlantirish maqsadida ilmiy asoslangan kasb yoki tarbiyaviy ishlar tizimini tanlashda, hayotga qadam qoʻyayotgan odamlarga yordam beruvchi tadbirlar tizimi sifatida ham tushuniladi. -SHunday qilib, shu tushunchani ifodalash kasbga yoʻllash boʻyicha bir necha va bu faoliyatlar rivojlanishi oqibatida sodir boʻldi. Vaqt oʻtishi bilan talablar ham oʻzgarib boradi, ular bilan birga mazmun va tushunchalar ham oʻzgaradi.

Bir qator ilmiy tushunchalar kabi kasbga yoʻllash tushunchasi ham oʻzgarishsiz kotib qolishi mumkin emas. Kasbga yoʻllash mohiyati haqida, Umuman olganda shakli, uslubi, vazifasi va maqsadi haqida jamiyatning tasavvuri oʻzgarishi bilan kasbga yoʻllash ham rivojlanib ham boradi. Bu tushunchaning oʻzgarib borishi mavjud taʼriflarda ham oʻz ifodasini topgan. Bu taʼriflarni har-biri kasbga yoʻllashning u yoki bu qirralarini, yaʼni funksiyasini ajratib koʻrsatish amaliy yoki nazariy rivojlanishi darajasini belgilash, pedagogika yoki psixologiya

pozitsiyasidan qarash, boshqarish nazariyasi va shu kabilarni boshqarishga nisbatan yaxshiroq yoritishda ajralib turadi:

SHuning uchun, kasbga yo‘llashga umuman ta’rif berishdan avval, 3 ta asosiy tashkil etuvchilar haqidagi tasavurni aniqlab olamiz. YA’ni: "Faoliyat", "Kasb", "Yo‘nalishni aniqlash".

Faoliyat insonni tashqi dunyo bilan faol munosabatini maxsus shakli sifatida ta’riflanadi, uning mazmuni tarkibida esa maqsadni o‘zgartish va qayta tashkil etish yotadi. Kasbga yo‘llash tushunchasida ko‘rilayotgan faoliyat kategoriyasiga kirish kasbga yo‘llashni amaliygina emas balki nazariy faoliyat ham ekanligini tasavvur qilishga imkon beradi. Bir qator bilimlar to‘planishi va bu bilimlarni olishdagi faoliyatni aniqrog‘i, fanlararo ilmiy yo‘nalishidir.

Amaliy faoliyat sifatida paydo bo‘lgan kasbga yo‘llash asta-sekin nazariya bilan boyib bormoqda, bu esa kasbga yo‘llashga amaliy va nazariy faoliyat birligida qarash imkonini beradi. Kasb (lotinchadan roteqqio-rasman ko‘rsatilgan mashg‘ulot, ixtisoslik, protiter-o‘z ishim deb e‘lon qilaman). Mehnat faoliyati turi, mashg‘ulot, yashash manbai hisoblanadi va ma’lum tayyorlarga talab etadi.

Akademik S.G.Strumilina fikricha bir-biriga bog‘liq kasblar bitta gruppaga birlashtirilishi mumkin. Masalan, temirchilar, yog‘ochga ishlov beruvchilar, muzikantlar. Ba’zi kasblarni esa ixtisoslik bo‘yicha turlashadi, masalan, duradgorlar, yumshok yog‘och ishlaydiganlar. Ixtisoslik bu kasbning o‘zi lekin u faqat bir kishi mehnat faoliyatini aniq turini bildiradi va xususiy nomlanishlarga ega bo‘ladi. Masalan o‘qituvchi kasbi. Mehnat o‘qituvchisi. Fizika o‘qituvchisi, matematika o‘qituvchisi ixtisosliklari.

"Yo‘nalishini aniqlash" tushunchasi bir qator fanlarga ishlatiladi. Geometriyada to‘g‘ri, qiya, tekislikda yo‘nalishini aniqlash, ximiyada molekula yo‘nalishini aniqlash. Bu tushuncha astronomiya, geografiya, topografiyada ham ishlatiladi. SHunday qilib "Yo‘nalishni aniqlash", tushunchasi ushbu fanlarning barchasida turgan joyni aniqlash va harakat yo‘nalishini tanlash bilan u yoki bu darajada bog‘liq.

Lugʻatda "Yoʻnalishni aniqlash" (fr. orientation bukvalno-napravlyat na vostok; lat.orienq-vostok) sharqqa yoʻnaltirish yoki sharq, toʻgʻridan toʻgʻri yoki koʻchirilgan maʼnoda aniqlanadi. Toʻgʻridan-toʻgʻri maʼnoda oʻzining turgan joyini aniqlash, koʻchirilgan maʼnoda esa ilmiy jamiyat va boshqa faoliyatlarni aniq bir tomonga yoʻnalishi. "Yoʻnalishni aniqlash" tushunchasiga qanday taʼriflar berilishidan qatʼiy nazar kasb tanlash boʻyicha koʻrilayotgan holatda ularning hammasi asosiy yoʻnalishni tanlash boʻyicha faoliyat bilan bogʻliq. Agar yosh inson kasblar dunyosida yoʻnalishni u yoki bu aniq bir kasbni oʻzining hayotiy intilishlariga qanchalik darajada mos kelishini harakat qilar va faol oydinlashtirishni boshlar ekan, bunday xollarda uning kasbga yoʻnalishi haqida gapirish kerak boʻladi. Jamiyat va unga mos keluvchi kasb tanlash maqsadida agar u pedagog va boshqa taʼsirlar obʼekti boʻlib qolsa "Yoʻnalishni aniqlash" haqida gapirishda yaxshisi uning kasb tanlashga yoʻllash maʼnosida qabul qilish kerak. Demak kasb tanlashga yoʻllash faoliyat mohiyatini toʻgʻriroq aniqroq ifodalaydi. Biroq amaliyotda yoʻnalishni aniqlash haqida gapirganda kasbga yoʻnaltirish va boshqa maʼnolarda ifodalash anʼana boʻlib koldi.

Yoʻnalishni aniqlash tushunchasi haqida yagona fikrni yoʻqligi boshqa sabablar bilan ham izoxlanadi. Masalan bu kompleks muammo boʻlib uni echimini topish yoʻnalishlari ham turlicha boʻlishi mumkin. Agar kasb tanlashga yoʻllash oʻqituvchi va oʻquv jarayoni xodimlari ustivor taʼsirida pedagogik amaliyot prizmasi orqali, hamda bu fikrni bosh va yagona deb qabul qilinishi, kasb tanlashga yoʻllash pedagogik obrazini yaratadi.

Agar bu jarayonni psixologiya fani prizmasi orqali koʻriladigan boʻlsa u yoki bu tanlovni oʻziga xos xususiyatini anglatuvchi psixalogik tushuncha va konsepsiyalar birinchi planga chiqib oladi. SHunday yondashish doirasida, oʻzaro bogʻliq ikki tomonni tashkil etuvchi, psixalogik jarayon sifatida, kasb tanlashga yoʻllashning tegishli obrazi shakllanadi: a) oʻz kasbiy tanlovi haqida oʻquvchilar tomonidan qaror qabul qilinishi; b) Bir vaqtning oʻzida jamiyat ehtiyojlari va shaxs qobiliyati va qiziqishlari bilan mos keluvchi kasb tanlashni amalga oshirish, kasbiy niyatlarni shakllantirish maqsadida oʻquvchilar ruhiyatiga taʼsir koʻrsatish.

Uchinchi yondashuv-ijtimoiy. Bunda kasb tanlashga yo‘llash jarayoni yoshlarni ijtimoiy yo‘llash umumiy jarayonining bir qismi sifatida qaraladi. Mos ravishda kasb tanlashga ijtimoiy guruxda, shartli umumiy hayot yo‘nalishida jamiyat ijtimoiy tizimida aniq joyni egallashga shaxsning intilishidan dalolat sifatida qaraladi.

YOshlarni u yoki bu kasbga yo‘naltirish amaliy ishlari, kasb tanlashga yo‘llashga oid mohiyatini tushunish masalalari kabilardan fanlararo yondashishni amalga oshirish zaruriyati kelib chiqadi. Kasb tanlashga yo‘llash tushunchasining yuqorida aytilganidek nazariy va amaliy ishlar bilan birligi quyidagicha ta’rif berishga imkoniyat yaradi. Kasb tanlashga yo‘llash- turli daraja kvalifikatsiya va turli kasbdagi kadrlarga jamiyatdagi ehtiyoj bilan bir vaqtning o‘zida shaxsning qiziqishini moyilligini qobiliyatiga mos holda asoslangan kasbiy tanlovga yoshlarni tayyorlash bo‘yicha maqsadli faoliyatdir. Bu ta’rif amaliy faoliyat birligini o‘zida ifodalab, faqatgina o‘quv-tarbiya jarayonidagina emas, balki rivojlanayotgan nazariyada qo‘llaniladi. Bunda nazariya muhim ahamiyatga ega:

Aynan shu erda u yoki bu g‘oya yo‘nalishini o‘zgartirib amaliy ishlarni ilmiy-amaliy ishlarga aylanishiga yordam beradi. Faoliyat bilan birgaliikda qoidaga ko‘ra nazariya paydo bo‘lmaydi. Kasb tanlashga yo‘llash amaliyotini takomillashtirishga ta’sir etuvchi nazariyani shakllantirish uchun izlanishlar, kuzatishlar, rivojlantirish yillari kerak bo‘ladi. Masalani amaliy tomoni davlat va jamiyat tashkilotlari korxonalar, birlashmalar, maktab va ota-onalarning, jamiyat va shaxs manfaatlari yo‘lida ijtimoiy va kasbiy o‘z-o‘zini anglash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha faoliyatlarini kamrab oladi.

Kasb tanlashga yo‘llash nazariyasini quyidagicha ko‘rinishda ifodalash mumkin. Bu bildirilgan fikrlar majmui, kasb tanlashga yo‘llash faoliyatini samarali amalga oshirishga qaratilgan g‘oya va tasavvurlar, tanlangan shaklda aks ettirilgan kompleks qarashlardir.

Bu ta’rif nisbatan umumiy va sodda, nazariya olamiga kirish uchun foydali, lekin har qanday faoliyat nazariyasini ta’riflashda duch kelinadigan ilmiy talabchanlik nuqtai nazaridan etarli emas. Bir muncha chukurrok tarif quyidagicha:

kasb tanlashga yo‘llash nazariyasi-bu ikki jarayon ya’ni yoshlarni shaxsiy qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlariga mos xolda kasbiy o‘zini-o‘zi anglashi va jamiyatda kadrlarga talab sezilgan kasblarga ularni yo‘naltirishning jiddiy bog‘liqligi va qonuniyatlari haqida to‘da tasavvur beruvchidir.

O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash nazariyasining asosiy tarkibiy qismlariga dalillar, qonuniyatlar, prinsiplar kiradi. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llashda, ilmiy uslublar yordamida olingan va tekshirib ko‘rilgan dalillar juda ham oz miqdorida. SHuning uchun asosiy vazifalardan biri yangi dalillarni yig‘ish va ularni to‘g‘ri sharxlash hamda tushuntirib berishdir. Bu shunday holatlardagina mumkinki, qachonki yangi dalillarni izlash bir yoki bir necha gipotezalar yordamida olib borilishi zarur. Bu esa o‘z navbatida nazariyaning bir qismini tashkil etadi. Masalan: aniq bir kasbni tanlashga ta’sir etuvchi har bir tumanning o‘ziga xos omillari bo‘lishi mumkin. SHunday bo‘lishi mumkin, omillar haqidagi gipoteza ilmiy izlanish metodlarini tashkil etishga yordam beradi, qiziqtirayotgan xodisalarga baho berish bu asosida o‘quvchilar bilan kasb tanlashga yo‘llash ishni yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Kasb tanlashga yo‘llash nazariyasining muhim tarkibiy qismi-ta’riflangan qonuniyatlardir. Ularni qidirish esa umumiy ilmiy faoliyat maqsadiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar o‘tkazish natijalaridagina qonuniyatlarni bilib olinadi va tariflar tekshirib ko‘riladi. Topilgan qonuniyatlar odatda fanning maxsus tilida, tushuntirish vositalari yordamida yuqori aniqlik bilan farq qiluvchi, ko‘rgazmaliligi, boshqa fan va ilmiy yo‘nalishlar tushunchalarini kasb tanlashga yo‘llash tushunchalari bilan bog‘lash imkoniyatlarini kattaligi orqali ifoda etiladi.

Har qanday nazariyaning rivojlanganlik darajasi faoliyat asosiga ko‘rilgan prinsiplari va tarkibi orqali aniqlanadi.

Kasb tanlash prinsiplarini shakllantirishga bir muncha diqqat ajratilishi talab etiladi. Lekin kasb tanlashga yo‘llash prinsiplari tizimini ishlab chiqish yakunlangan deb xozircha aytib bo‘lmaydi. Barcha talablarni qoniqtiruvchi, ziddiyatlardan xoli tizimlar yaratish uchun birqancha ishlarni amalda bajarish lozimligi turibdi.

Insonni ijtimoiy-kasbiy o'z-o'zini anglash jarayoni kasb tanlashga yo'llash faoliyati ob'ekti ekanligi sababli birinchi navbatda prinsiplarni turlarga ajratish muhimdir. Chunki ulardan jamiyat ijtimoiy tizimida yoshlar o'zlariga kasb va o'rin tanlashda foydalana olsinlar.

Kasb tanlashdagi onglik prinsipi mehnat faoliyatida shaxsiy ehtiyojlarni faqatgina qondirish bilan chegaralanib qolmasdan jamiyatga mumkin qadar ko'p foyda keltirishga intilish orqali ifodalanadi. Tanlanayotgan kasbdagi muvofiqlik prinsipini shaxsiy qiziqishlar, moyillik, qobiliyat va kasb egalariga jamiyatdagi zaruriy ehtiyojni, kasb tanlashdagi shaxsiy va jamiyat komplekslari aloqasi namoyon bo'lishidir. Jamiyatda yashab turib, jamiyatdan xolis bo'lish mumkin emas. Xuddi shuningdek, jamiyatning qiziqishlari va ehtiyojlari bilan hisoblashmasdan turib faqatgina o'z qiziqishlari va hohishlari asosida kasb tanlab bo'lmaydi. Jamiyat ehtiyojlarida muvofiqlik prinsipini buzilishi kadrlar kasbiy tizimida muvozanatni buzilishiga olib keladi.

Kasb tanlashda faollik prinsipi kasbiy o'rnini anglash jarayonidagi shaxs faoliyati turini tavsiflaydi. +amma o'zi o'z kasbini faol qidirishi kerak. Bunda, o'quvchilar tomonidan o'z kuchini sinab ko'rish, mehnat va kasb tayyorgarligi jarayonida o'zini tekshirish ota-onalar tajribasi va maslahatlardan foydalanish, adabiyotlar o'qish va o'ziga qiziqarli kasbni qidirish, texnik ijodkorlik to'garaklarida qatnashish amaliyotlar davrida mehnat faoliyatiga kirishish va shu kabilar yaxshi natija beradi.

Faollik izchil, hajmi va mazmuni ortib boradigan maqsadga muvofiq harakatlar sistemasidan iborat bo'lib ularning natijasi oxirgi mahsulot, yangi texnologiya, amalga oshirilgan ilmiy kashfiyot, ijodiy asar va xokazolar sifatida namoyon bo'ladi. Mana shu harakatlarning barchasi zamonaviy eng yuksak talablarga javob berishi, jahon fani, madaniyati, ilg'or ishlab chiqari amaliyoti yutuqlarining yuqori pog'onasi bo'lishi lozim. Rivojlantirish prinsipi bu turdagi prinsiplar ichida oxirgisi hisoblanadi. Bu prinsip shunday kasb tanlash g'oyasini ifodalaydiki, bunda shaxsiy malakalarni oshirish imkonini berilishi, kasb mahorati va tajribasi o'sib borishi bilan mehnatga to'lanadigan maoshning ortib borishi, jamiyat ishlarida faol

ishtirok etish imkoni berilishi, shaxsning ommaviy ehtiyojlarini qondirish, yashash va dam olish joyi va shu kabi ehtiyojlarni qondirishi kafolatlanishi kerak.

Kasb tanlashga yo‘llashda umumpedagog prinsiplar bilan yaxshi bog‘langan quyidagi prinsiplar ham mavjud: kasb tanlashga yo‘llashni o‘quvchilar mehnat ta‘limi-tayyorgarligi bilan bog‘liqligi bu prinsip o‘quvchilarni mehnat ta‘limi va tarbiyasini ijtimoiy foydali va unumli mehnatdan, texnik va boshqa to‘garaklardan bilimdonlik bilan foydalanib maqsadga muvofiq tashkil etilishini nazarda tutuvchi hisoblanadi.

Kasb tanlashga yo‘llash mehnat tayyorgarligidan uzilishda bo‘lsa, shaxsning mehnat va kasbga tayyorlash umumiy masalalaridan, amaliyotdan ajralgan mavxum, chaqiriqona tus oladi. Tartiblilik va izchillik prinsipi kasb tanlashga yo‘llashda maktabdagi kasbga yo‘llash ishlarini sinfdan sinfga o‘tish shartini majburiy bo‘lishini ta‘minlaydi.

Kasbga yo‘llashda oila va maktab, o‘quv yurtlarining o‘zaro hamkorlik prinsipi o‘quvchi yoshlarga kasb tanlash ishlarida yordam ko‘rsatishda yaqin munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi. Bunda hamkorlik ishlarini maqsadli va markazlashgan bo‘lishini kuchaytirishni ko‘zlanadi.

Kasb tanlashga yo‘llashning tarbiyaviy xarakteri kasbga yo‘llash ishlarini sog‘lom avlodni tarbiyalash vazifalari bilan bir qatorda ularni Iqtisodiy, axloqiy, estetik, xususiy, jismoniy, mehnat tarbiyalarini amalga oshirish zaruriyati bilan belgilanadi.

Kasbga yo‘llash ishlarini amalga oshirishdagi diagnostik va tarbiyaviy yondashish bog‘liqligi prinsipni, bir yondoshishni ikkinchisiga qarshi qo‘yish mumkin emasligini bildiradi. +ar biri o‘z masalalarini xal etadi.

O‘quvchilarga tabaqalashtirilgan va individual yondashish, ularning yoshi va kasbiy qiziqishlarining shakllanganlik darajasi, moddiy yo‘nalganlikdagi farqi, hayotiy rejaları, o‘zlashtirish darajasini etiborga oladi. O‘quvchilarni guruxlarga tabaqalashtirish ularga ta‘sir ko‘rsatish vositalarini aniqlash imkonini beradi, bu vositalar bir guruxda samarali boshqasida esa samarasiz bo‘lishi mumkin.

Tabaqalashtirish individual yondashishni amalga oshirish uchun sharoit yaratib beradi.

Ommaviy, gurux va induividual shakllarini oqilona qo‘shilishini o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan kasbga yo‘llash ishlarida, turli shakllardan foydalanish zarurligini tasdiqlaydi, an’anaviy foydalanilayotgan ommaviy shakllardan chetga chiqishni, barcha ish shakllarini muvozanatli qo‘shilishni, diqqatni kuchaytirishni tavsiya etadi.

Kasbga yo‘llash ishlari shakl va uslublari, mazmuning shaxsning kasbiy rivojlantirish ehtiyoji hamda talab darajasidagi kvalifikatsiyali aniq kasbdagi kadrlarga bir vaqtning o‘zida tuman ehtiyoji orqasidagi muvofiqlik prinsipi orqali ifodalanadi.

II BOB. DARSDAN TASHQARI MASH/ULOTLAR JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH ISHLARINING YO‘NALISHLARI

§2.1. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kasb tanlashga yo‘llashning shakl va metodlari

Kasb tanlashga yo‘llash ishlari kasb jarayoni va uning o‘ziga xos tomonlari haqida ma’lumot berishdan boshlanadi. Kasbiy ma’lumot haqida biz avvalgi mavzularimizda gapirib o‘tgan edik. SHuning uchun kasbiy ma’lumot masalalariga to‘xtalib o‘tirmay kasb haqida ma’lumot berish shakllari haqida, kasb tanlashga yo‘llash shakl va uslublari haqida fikr yuritamiz.

Kasb haqida ma’lumot berish shakllari nixoyatda xilma-xil bo‘lib quyidagilarni o‘z ichiga oladi: mehnat qahramonlari va faxriylari bilan uchrashuvlar, kasb buyicha eng yaxshi ishlarga konkurslar, baxslar, ilmiy-amaliy va o‘quvchilar anjumanlari, og‘zaki, jurnallar, sinf soatlari va hokazolar. Bunday mashg‘ulotlarda ko‘rgazmali vositalardan foydalaniladi. Bular kinofilmlardan parchalar, radioeshittirishlar, teleko‘rsatuvlar, plakatlar, maxsus bezatilgan kinematik stendlar, yig‘ma kitoblar, magnitofon yozo‘vlari, professogrammalar, albomlar, rasmlar, sxemalar, diogrammalar, modellar, mo‘lyajlar va boshqalar. Ko‘rgazmali qo‘rollardan foydalanish kasb haqida ma’lumot berishning muhim sharti hisoblanadi, chunki ular o‘quvchilarning tuyg‘ulariga har tomonlama ta’sir etadi, atrof-borlik to‘g‘risidagi to‘shunchalarning shakllanishiga yordam beradi, o‘quvchilarning hissietini rivojlantiradi, bu xol o‘z navbatida ularning turli tuman kasblarga shaxsiy munosabati jarayonini aktivlashtiradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar mehnat faoliyatining turli ko‘rinishlari bilan har-xil kasb kishilari, ota-onalarining kasblari bilan tanishadilar. Bu yondashish o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olib ularda mehnatga ijobiy munosabatni har tomonlama rivojlantirish ular mehnatining jamiyat uchun muhimligi va zarurligi ochib berish kerak.

5-7 sinf o'quvchilariga kasb haqida ma'lumot berishdan maqsad kasb tanlashning axloqiy, g'oyaviy mehnat asosini shakllantirishdir.

YOsh o'smir axloqiy ongi tez o'sishi bilan ajralib turadi, unda hayotiy va kasbiy ideallar paydo bo'ladi, shaxs sifatida o'zini anglab etishi ehtiyoji namoyon bo'ladi. SHu yoshdagi o'quvchilarga kattalarning mehnati to'g'risidagi tasavvurlar doirasini kengaytirishga yordam berish, turli faoliyat sohasiga qiziqishini shakllantirish zarur, shuning uchun ularga kasb haqida ma'lumot berish, ishchilar, ota-onalarining aktiv yordamida ekskursiya orqali atrofdagi korxonalar va xizmat sohalari bilan tanishish, ommaviy ishchi kasblari vakillari mehnat qahramonlari va faxriylari bilan uchrashuvlar, mehnat va shuxrat joylariga yurishlar, gulxanlar orqali amalga oshiriladi. Kasb tanlash to'g'risida grupp bo'lib suhbatlar o'tkazish ham ana SHunga xizmat qiladi. Masalan, "Kasb tanlash uchun o'zi to'g'risida nimalarni bilishi kerak", "Qanday kasblar nufuzli hisoblanadi, nima uchun" va boshqa temalarda suhbatlar qilish mumkin.

O'qilgan kitoblarni, ko'rilgan filmlarni saxna asarlarini muxokama qilish o'quvchilarning axloqiy ideallari shakllanishiga, kimga taqlid qilishini anglab olishga yordam beradi. Bunda o'quvchilarning turli-tuman mehnat va kasblar to'g'risidagi bilim, ma'lumotlari kengayadi, bir muncha puxta va engil bo'lib qoladi, mehnatga munosabat anchayin mas'uliyatliroq bo'ladi, mehnatning konkret turlariga, avvalo yaqin atroflarida uchrashi mumkin bo'lgan mehnat turlariga qiziqish namoyon bo'la boshlaydi.

8-9 sinflarda o'quvchilarning xilma-xil faoliyat turlariga qiziqish va moyilliklari sezilarli tarzda individuallashtirib, farqlanib, bir muncha ongli bo'lib qoladi. O'quvchilar birinchi mustaqil hayotiy muhim qaror kabo'l qilish arafasida bo'ladilar: Bundan bo'yon o'z bilimini qanday davom ettirish kerak degan savol ko'ndalang bo'ladi. SHu davrda maktab o'quvchilarini shahar, tuman, viloyatdagi turli kasb hunar kollejlari va akademik litseylar bilan tanishtirish juda muhimdir. Ochiq eshiklar tadbirlarini o'tqazish, kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'qituvchi-xodimlari bilan uchrashuv va suhbatlar uyushtirish, maktab o'quvchilarini ishlab-chiqarish korxonalarini, tashkilotlar va o'quv yurtlari

prospektlari, bukletlari, kasbga oid yozma materiallarini tanishtirish, o'quvchilar va ota-onalarning yig'ilish va anjumanlarini tashkil etish shular qatoriga kiradi. 8-9 sinf o'quvchilarining qanday kasbni mo'ljallayotganliklarini aniqlash maqsadida anketalar olinadi. SHu yoshdagi maktab o'quvchilariga kasb haqida ma'lumot berish yuzasidan ishlar tuman, shahardagi korxonalariga tematik ekskursiyalar, maqsadga yo'naltirilgan baxslar, konferensiyalar bilan to'ldiriladi. Maktab o'quvchilariga kasb tanlashda o'quvchilar konferensiyalari jiddiy yordam beradi. Badiiy abadiyot - bu, albatta, kasblar to'g'risidagi ma'lumotnoma emas, biroq ko'pgina badiiy asarlarda muayyan mehnat va kasb kishisini uning ma'naviy olami va axloqiy fazilatlarini tasvirlangan. O'qilgan kitoblarni muxokama qilayotganda "Men va adabiy qahramon" degan pedagogik vaziyat vujudga keladi, maktab o'quvchilari sevib qolgan adabiy qahramonlarning fazilatlarini o'z shaxsiy xislatlari bilan, o'zining qaysi kasbni mo'ljallayotganliklarini taqqoslash ehtiyoji paydobo'ladi.

Kasblarni targ'ib qilish o'quvchilar va ularning ota-onalarini tanlash ob'ektlari: korxonalar, kasblar, o'quv yurtlari bilan tanishtirishdan iborat. U jamiyat uchun zarur bo'lgan bir qator kasblarga nisbatan noto'g'ri munosabatni o'zgartirish va maktabni bitirib chiquvchilarda ularni tanlashga qiziqish uyg'otish maqsadida o'tkaziladi. Kasblarni targ'ib qilish har bir konkret holdagi individual tanlashda shart emas, balki yoshlar ommaviy ravishda jamiyatning qadrlarga ehtiyojiga bir muncha chetga chiqqan onlarda lozim bo'ladi.

Kasblarni targ'ib qilish yoshlarni kasbga yo'naltirish ishini tarkibiy qismi hisoblanib, maktab o'quvchilarining g'oyaviy-siyosiy, mehnat va axloqiy tarbiyalash asosida qo'yilgan zaminga tayanadi.

Targ'ibot ishlari quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi mumkin:

- kasb faoliyati, mehnat turi muayyan sohasining ijtimoiy ahamiyatini ochib berish;
- texnika va texnologiyaning progressiv o'zgarishlari ta'sirida ishchilar mehnati intilektuallashtirishdan konkret misollar ko'rsatish;
- mehnat jarayoni va ularning natijalarini estetikashtirish;

- o‘quvchilar ota-onalarining, kasb-hunar kollejida va akademik litseylarda ta’lim olayotganlar, dastlabki va avvalgi yillarda kasb-hunar kollejlarni bitirib kasb egallaganlar, taniqli kishilar va boshqalarning kasblari to‘g‘risidagi ijobiy baholar va fikrlar bilan tanishtirish;
- o‘quvchilarni kasblarning qadr-qimmatini hamda ana shu kasb vakillari g‘ururlanuvchi narsalar bilan tanishtirish.
- kasbni targ‘ib qilish, o‘quvchilar kollektivining to‘g‘ri fikrini shakllantirish va o‘quvchilar bilan individual tarzda ishlayotganda unga tayanish mumkindir;
- kasb tanlashda shaxsning axloqiy pozitsiyasi masalalari yuzasidan jamoat fikrining shakllantirishning e’tirof etilgan vositalardan biri munozaralardir.

Munozarlardan maqsad, o‘quvchilar yangi bilimlar olishdan ham ko‘ra munozara tashkilotchilarining fikriga yaqin yoki u bilan to‘g‘ri keladigan kollektiv fikrni ishlab chiqish muhimligidir. Munozara, qarashlar va mustaqil fikrlarni erkin izhor etishni nazarda tutadi. Qatnashchilarning bir-biriga va rahbarga ishonchi bo‘lsa, munozara ochiqchasiga o‘tadi, uning mavzusi belgilanayotganda aniq bir qarorga kelish oldindan bilinib qolmasligi kerak. Mavzuni qat’iy qilib ta’riflash unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki mavzuning nomidanoq xulosa chiqib turadi. "Mutaxassislik, kasb, iste’dod nimani bildiradi?" qabilidagi ta’rif ham muvaffaqiyatsizdir. Savolga javob berish uchun ma’lum bilimlar kerak, unda o‘z pozitsiyasini ifodalash zaruriyati ham bo‘lmaydi, vaziyatga shaxsan jalb etish qiyin bo‘ladi.

Munozaralarning quyidagi mavzularini tavsiya etish mumkin:

- Kelajak odami qanday bo‘lishi kerak, qaysi zamondoshingda uning xislatlarini ko‘rasan?
- Sening hayot yo‘lingni tanlashing bu faqat shaxsiy ishmi?
- "Mashaqqatli yillar baxti" degani nimani bildiradi?

Munozara o‘tkazish rahbardan katta pedagogik odobni, bildirilayotgan fikrlarga hurmat bilan qarashni qatnashchilar pozitsiyasi mohiyatini ochib berishni va munozaralarni yo‘nalishini fikrlar to‘qnashuvi tufayli tug‘ilayotgan tortishuvli

vaziyatni hal etishga burib yuborishni talab qiladi. Munozarani uyushtirishga ijodiy yondashish zarur.

Kasb tanlash bo'yicha kino klublarning faoliyati kasbga yo'naltirish ishida kinofilmlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini beradi.

Kasb tanlash bo'yicha kinoklublarning navbatdagi mashg'ulotiga ekskursiyalar vaqtida suratga olingan fotografiyalar, turli mutaxassilar mehnati mavzusidagi suratlar vistavkasi tayyorlanadi, musiqa tanlanadi. Kinoklub mashg'ulotiga kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar ekranlashtirilgan-teatrlashtirilgan tomoshalarini, konkurs, kinoviktorina singarilarni kiritish mumkin.

Kasb tanlashga yo'llashda vazifalar amalga oshiriladi:

1. Maktabga yaqin korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlarining tipik texnikasi, texnologiyasi va tashkil etilishi bilan tanishtirish.

2. Kasblarning umumiy klassifikatsiyasi, konkret shahar va tumandagi kasblar, kishining kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablar bilan tanishtirish.

3. O'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, kasb tanlashning ijtimoiy qimmatli motivlarini tarkib toptirish, o'z kasbiy mavqeini belgilashda ko'maklashish.

4. O'quvchilar kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarda egallashi uchun ularga 8-9 sinflarda kasbiy tayyorgarlik ixtisosini, ommaviy kasbni tanlashlarida yordam berish.

5. O'zbekiston ta'lim tizimi, kasb-hunar ta'limi va malaka oshirish yo'llari bilan tanishtirish.

Mana shu vazifalar kursning bo'limlarini o'qitishda ham, ayrim temalarni o'rgatishda ham o'zaro chambarchas bog'liq holda xal qilinishi kerak.

Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar xalq xo'jaligining strukturasi, kasblarning klassifikatsiyalashning turli usullari, ularni egallash yo'llari, kasbni insonga qo'yadigan talablari bilan tanishishdan tashqari, o'z qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarini aniqlashning ba'zi amaliy ko'nikmalarini ham o'zlashtirilishi zarur. SHu maqsadda ularga qiziqish kartasi, moyllikni baholash kartasi va hakoazolarni to'ldirish kabi topshiriqlarni bajartirish ko'zda tutiladi. Bu tadbirlar xar bir

o‘smirga o‘z imkoniyatlarini haqiqiy baholash va ularni muayyan kasbning insonga qo‘yadigan talablari bilan taqqoslash imkonini beradi.

8-sinfdagi kasbga yo‘naltirish kursini o‘quv-mavzu rejasi quyidagicha;

1. Kasblar va ularning tasnifi. 4 soat,
2. Inson (shaxs) va kasb. 5 soat,
3. Kasb tanlash omillari. 8 soat.

Jami: 17 soat.

1. Kasblar va ularning tasnifi.

SHakllantiriladigan bilimlar: kasblar tasnifining bayoni, kasblarda mehnat turlarining (odam-tabiati, odam-texnika, odam-odam, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz) ta’rifi, qo‘l mehnatidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar. Mashinalardan, avtomatlashtirilgan apparatlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar. Kasb tanlashning tashkiliy shakllari va usullari.

Amaliy mustaqil ishlar: kasblar tasnif etilgan jadvalni ishlab chiqish. O‘quvchi tanlagan kasbi bo‘yicha referat tayyorlash.

2. Inson (shaxs) va kasb.

SHakllantiriladigan bilimlar; kasbga qiziqishning rivojlanish bosqichlari, qiziqishning maylga aylanish jarayoni. Qiziqish mayli va qobiliyatning kasb tanlashga ta’siri. Irodaviy vazifalarni (dadillik, qat’iylilik, intizomlilik, o‘ziga va o‘z qobiliyatiga ishonish, o‘zini idora qila bilish) rivojlantirish omillari.

Amaliy mustaqil ishlar: kasblar tizimining jadvalini tuzish. Kasb tanlash va uni egallashda salomatlik bo‘yicha qo‘yilgan talablar haqida referat tayyorlash.

3. Kasb tanlash omillari.

SHakllantiriladigan bilimlar: kasb tanlashga doir reja tuzish.

Kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlari. Kasbni to‘g‘ri tanlashning mohiyati va istiqboli. Kasb tanlashdagi o‘z qobiliyatlarni xis etish omillari.

Amaliy mustaqil ishlar: kasbga doir shaxsiy reja modelini ishlab chiqish. "Men tanlagan kasb" mavzusida referat ezish.

9-sinfdagi kasbga yo‘naltirish kursining o‘quv-mavzu rejasi quyidagicha:

1. Inson (shaxs) va kasb. 7 soat.
2. Kasb tanlash omillari. 10 soat.

Jami: 17 soat.

1. Inson (shaxs) va kasb.

SHakllantiriladigan bilimlar: kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik. O‘z-o‘zini tarbiyalash va kasb tanlashning mohiyati. Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish. Odamning o‘zi hohlagan kasbga yaroqli ekanligi belgilash, o‘z ruxiyatidagi kasbga moyillikni tarbiyalash usullari.

Amaliy mustaqil ishlar: kasb yo‘nalishlari bo‘yicha davra suhbatlari uyushtirish va olingan xo‘losalar asosida referat tayyorlash.

2. Kasb tanlash omillari.

SHakllantiriladigan bilimlar: kasbga yo‘naltirish markazlari va o‘quv yurtlarining vazifalari. Diagnostik kasb maslahati jarayonida EXMdan foydalanish. Akademik litseylar va kasb-hunar kolledjlarining yo‘nalishi, ularni bir-biridan farqi.

Amaliy mustaqil ishlar: o‘quvchi o‘z hohishiga asosan tanlagan kasbga doir ma’lumotlar asosida referat tayyorlash.

8-9 sinflardagi kasbga yo‘naltirish kursi bilan birgalikda o‘qitiladigan mashina elementlari va ishlab chiqarish asoslari kursi o‘quvchilarni ta’limning bir necha ixtisosligi bo‘yicha mehnat mazmuni bilan tanishtirish, ulardan birini tanlashning ijobiy motivlarini mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar 5-7 sinflardagi mehnat ta’limi jarayonida o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalana oladigan ixtisoslar bo‘yicha ularga konkret mehnat topshiriqlarini, masalan, materialni chilangarlik ishlovi uchun rejalash, detallarni yig‘ish uchun komplektlash va xokazolarni tavsiya etish mumkin. Boshqa xollarda o‘smirlarni ish o‘rni, mehnatning tashkil qilinishi, texnologik-jihozlar va asbob-uskunalar bilan tanishtirishning o‘zi kifoya.

O‘quvchilarning amaliy ishlari kasblar bo‘yicha individual va guruh uchun maslahatlar bilan uyg‘unlashadi. O‘qituvchi ana shu maslahatlar jarayonida o‘quvchilarning qiziqishi, moyilligi, qobiliyati, jismoniy imkoniyati, xarakter

xususiyatlariga va umumli mehnat jarayonida o'quvchilarni shaxsan kuzatishiga tayanib o'smirlarga kasbiy tayyorgarlik ixtisosini tanlashda yordam beradi. Dastlabki tanlashdan o'zi qanoatlanmagan o'quvchilarga boshqa ixtisosga o'tish va uning xususiyatlarini o'ziga xos tomonlarini o'rganishga keyin qat'iy tanlashga ruxsat beriladi.

Kursni o'rganish o'quvchilarga keyingi kasbiy tayyorgarlikning yo'llarini tushuntirish, kasblar bo'yicha maslahatlar o'tkazish va tanlangan kasblar yuzasidan referatlar yoqlash bilan tugallanadi. Har bir o'quvchi tuzgan faqat yaqin hamda uzok maqsadlar emas, balki ularni amalga oshirish ishlari xam ifodalangan kasbiy reja o'quvchilar olgan bilimlarning o'ziga xos ko'rsatkichi bo'ladi. YAKunlovchi mashg'ulotlarda o'quvchilarga iloji boricha ko'proq mustaqillik berish zarur. Chunki ular kasb tanlashda mustaqil holda qat'iy qarorga kelishlari lozim. Oldindan o'quvchilarga kasblar bo'yicha ma'lumotnoma adabiyotlar bilan tanishishga doir individual topshiriqlar berish, tanlangan kasb vakillari bilan uchrashishni, zarur bo'lsa, vrach bilan maslahatlashishni, tegishli o'quv yurtlaridagi ochiq eshiklar kunlarida qatnashish va xokazolarni tavsiya etish kerak. Lozim bo'lsa, o'qituvchi kasblar bo'yicha guruhga va individual maslahatlarda o'quvchilarning kasbiy rejalariga tuzatishlar kiritishi ularning kasb tanlashini ob'ektiv baholashi kerak.

Predmetlararo aloqalarni amalga oshirish kursni o'qitish samaradorligini ancha yaxshilaydi. Masalan, o'quvchilarda hozirgi zamon ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi haqidagi bilimlarni shakllantirishda fizika, kimyo predmetlarining mazmuniga tayanish; ishlab chiqarishni tashkil etish haqidagi bilimlarni tarkib toptirishda iktisod, geografiya va tarixga murojat qilish kerak.

Kursni maktabdagi kasbga yo'naltirish ishlarining butun tizimi bilan chambarchas bog'liq va uzviy tarzda, ta'lim va tarbiyaning oldingi bosqichlarida mehnat faoliyatiga tayyorlikning shakllantirish bo'yicha o'quvchilar orttirgan tajribani hisobga olgan xolda o'rganish o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. O'qituvchi mashg'ulotlarda o'quvchilarni olgan bilimlaridan maksimal darajada foydalanishi zarur. Bu

bilimlarni aktivlashtirishning omillari har xil, masalan: o'quvchilarning korxonadagi o'z mehnatlari, faoliyatlari haqidagi hisobotlari, korxonaning ilg'or vakillari mehnat biografiyasini tuzish, maktabda ishlab chiqarish muxitidagi kasblarni eng yaxshi bilish bo'yicha konkurslar o'tkazish, reportajlar uyushtirish va xokozolardan iborat bo'lishi mumkin.

§2.2. Ekskursiya o'tkazishda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash

O'quvchilarni ishlab chiqarish, mehnat turlari, kasb ta'limi tizimi bilan tanishtirishning muhim shakli ekskursiyadir. O'qituvchi ekskursiyalar o'tkazishni oldindan rejalashtirishi, ekskursiyalar vaqtida o'quvchilar e'tibor berishi lozim bo'lgan konkret topshiriqlar tizimini savollar shaklida ishlab chiqishi kerak. Bu savollar ishchi va mutaxassislar mehnatining mazmuniga, ish o'rinlarini tashkil etishga, mehnat sharoitlariga, kasbning shaxsga qo'yadigan talablariga, kasbiy o'sish va xokozolarga taalluqli bo'ladi.

Ekskursiya korxonada faoliyatiga xalal bermasligi va ta'limiy jihatdan maksimal darajada samarali bo'lishi uchun o'quvchilarni sexlar, ish uchastkalariga (4-5 kishi) guruhlarga bo'lib olib kirish maqsadga muvofiqdir. Ekskursiyalarni o'tkazishga korxonada vakillari, ishlab chiqarishning yosh ilg'orlari va boshqalarni jalb qilish tavsiya qilinadi. Ular o'qituvchiga ekskursiyada guruppalarni almashtirishning aniq grafisini tuzishda yordam berishlari mumkin.

SHuningdek akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga ekskursiyalarni rejalashtirishda ular o'quvchilarga kelgusidagi kasblarni tanlashda yordam berishini hisobga olish mumkin.

Ishlab chiqarishda kasbga yo'naltirish ekskursiyalarini masalan, quyidagi talablar bo'yicha o'tkazish mumkin:

"Xalq xo'jaligi kasblari, ularning klassifikatsiyasi", -maktabga yaqin korxonadagi kasblar bilan tanishi;

"Salomatlik va kasb tanlash", -o'quvchilarning ish kunini uzunligi, ish kuni mobaynida mehnat rejimini realizatsiya qilish, chang, shovqin, titrashga qarshi kurash tadbirlari, ishchining kiyimlariga quyiladigan talablar va xokozolar haqida ma'lumotlarni to'plash.

Ekskursiya jarayonida o'quvchilar respublikamiz mehnatkashlarining hayoti, axloqiy sifatleri haqida muayyan bilimlarga ega bo'ladilar.

Ishlab chiqarish korxonalariga uyushtirilgan o'quv ekskursiyalarini taxminiy vazifalari va mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ekskursiyaning tarbiyaviy vazifalari.

-odamning mehnati natijalariga xurmatni, ularga avaylab munosabatda bo'lishini tarbiyalash;

-jamo'a, yakka tartibdagi, pudrat, ijara usulida bajariladigan mehnatning afzalligini ko'rsatish;

-o'z shahri (qishlog'i) kishilariga xurmatni tarbiyalash;

-hozirgi davrdagi mehnatning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvurni shakllantirish;

-mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni zarurligini ko'rsatish;

-mehnat axliga xurmatni tarbiyalash, notanish kasblarga e'tiborni jalb qilish, mehnat madaniyatini ko'rsatish.

2. Ekskursiyaning asosiy mazmuni.

-keng iste'mol bo'yumlarini ishlab chiqarish bilan tanishish. O'quvchilarga kerak bo'ladigan kitob, maktab formalari va xokazolarni tayyorlash uchun qanchalik ko'p mehnat, texnika va odam kerak bo'lishini ko'rsatish;

-zavod va daladagi barcha ish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini mehnatning jamoa xarakterini, mehnat an'analarini ko'rsatish;

-mehnat mahorati bilan eng yaxshi ko'rsatgichlar, ilg'or kishilar mehnati bilan tanishtirish;

-asosiy ixtirolar va mehnatni takomillashtirishni ko'rsatish, odamlar bilan tanishtirish;

-kasbga qiziqish o'yg'otish.

O'quv yurtlari akademik litsey va kasb - hunar kollejlariga tashkil etiladigan ekskursiyalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Kirish suhbatida o'quvchilarni kasb-hunar kolleji (akademik litsey) ning tarixi, o'quv jarayonining xususiyatlari ta'limning ixtisosliklari, o'quvchilarni ixtisoslar

bo'yicha taqsimlash tartibi bilan, malaka berish qoidalari bilan qisqacha tanishtirish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar oldiga ekskursiya oxirida javob beriladigan quyidagi savollar quyiladi:

- kasb - hunar kollejida qaysi ixtisosliklar bo'yicha ta'lim beriladi?
- kasb - hunar kollejaridagi ta'limning maqsadi nima?
- qanday korxonalar kasb-hunar kolledji uchun ba'za korxonalar hisoblanadi?
- o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti qayerda o'tadi?
- ta'lim ixtisoslari bo'yicha taqsimot qanday amalga oshiriladi?

Obzor ekskursiya vaqtida o'quvchilar o'quv korxonalarini va ustaxonalarni, ulardagi asbob uskunalarni, texnik ijodkorlik to'garaklari ishlaydigan xonalarni, o'quvchilar yasagan buyumlar ko'rgazmasini ko'zdan kechiradilar, o'qituvchilar va ishlab-chiqarish ta'limi ustalari bilan tanishadilar.

Ekskursiyani yakunlashda berilgan savollar bo'yicha o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi; so'rash (ogzaki yoki yozma) natijalari bo'yicha o'quvchilarning dastlabki kasbiy qiziqishlari belgilanadi.

O'quvchilarga amaliy tanishish uchun tavsiya etiladigan ixtisoslarning umumiy soni turlicha bo'lishi mumkin (kasb hunar kolleji yoki akademik litsey ixtisoslarining nomeklaturasiga, o'smirlar qiziqishlarining xususiyatlariga, mahalliy ishlab chiqarish muxiti va xokazolarga bog'liq holda). Lekin uchtadan kam bo'lmasligi kerak. Quyida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadida o'tkaziladigan ekskursiyalardan namunalar keltiramiz.

I. Kasb hunar kollejiga ekskursiya o'tkazish.

Maqsad. O'quvchilarni kasb hunar kollejida kasb egallashning xususiyatlari, bilim yurtida o'rgatiladigan kasblar bilan chuqur tanishtirish.

Ekskursiyaga tayyorlanish. Ekskursiya konkret kasb-hunar kollejlari va kasbga qiziqadigan sinflar uchun ham, o'quvchilarning ayrim guruhi uchun ham o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi oldin kasb-hunar kollejiga boradi va ma'muriyat bilan birga ekskursiya rejasini ishlab chiqadi, o'qituvchi guruhlarining harakat mashg'ulotini, kirish suhbatining mazmunini, kasbga doir ma'lumot berishning ko'rsatmali vositalardan foydalanishni belgilaydi. Ekskursiyadan oldin

o'tkaziladigan mashg'ulotlarda, o'quvchilarga ekskursiya maqsadini tushuntiradi va bilim yurtiga boradigan o'quvchilar guruhini tuzadi. SHu bilan birga o'quvchilarni ekskursiyadan so'ng javob qaytariladigan quyidagi savollar bilan tanishtiradi:

Kasb hunar kollejida qanday kasblar bo'yicha ta'lim beriladi?

Kasb hunar kollejiga qabul qilish shartlari qanday?

O'quvchilarning o'quv va mehnat faoliyati rejimi qanday?

Kasb hunar kollejining o'quvchilariga va bitiruvchilariga qanday imtiyozlar beriladi?

Mazkur bilim yurtini bitirganlar qaysi korxonalarda ishlaydilar?

Ularni keyingi kasbiy kamolat yo'llari qanday?

Ekskursiyaning borishi:

1. Kirish suhbat. Ekursivod malakali ishchilar tayyorlashda kasb-hunar ta'limi tizimini roli haqida, bilim yurtining tarixi, an'a-nalari, uni bitirganlarni mehnatdagi yutuqlari, o'quvchilarni nazariy va amaliy tayyorgarligi mazmuni, ularning dam olishi va to'garak ishlarini tashkil etish to'g'risida so'zlab beradi.

2. Kasb-hunar kollejining o'quv kabinetlari, laboratoriya va ustaxonalari, bilim yurti o'quvchilari ta'lim va ishlab chiqarish praktikasi jarayonida tayyorlagan maxsulot turlarini ko'rish.

3. Kasb-hunar kolleji o'quvchilari bilan bilim yurti haqida va ular o'rganayotgan kasb to'g'risida suhbatlar. Bilim yurti haqidagi bukletlarni, ochiq eshik kunlariga taklifnomalarni tarqatish.

4. Ekskursiyani yakunlash. Ekskursiya oldidan berilgan savollar bo'yicha suhbat. O'quvchilar o'y vazifasi sifatida ekskursiya to'g'risida yozma hisobot tayyorlashlari lozim.

II. Maktab yaqinidagi korxonaga ekskursiya o'tkazish.

Ekskursiya ob'ekti sifatida korxonaning yigiruv sexi, ta'mirlash ustaxonasi, avtoxo'jaligi, mexanizatsiyalashtirilgan fermasi, qishloq xo'jalik mashinalari parki va xokazolar olinishi mumkin.

Maqsad. O'quvchilarni maktabga yaqin korxonada "Odam-texnika" tipidagi kasblarning talablari bilan tanishtirish. Professiogrammalar tuzish uchun ana shu tipdagi kasblar bo'yicha mehnat mazmunini ko'zlash.

Ekskursiyaga tayyorlanish. O'qituvchi ekskursiya ob'ektini sinchiklab o'rganadi. Korxonada xodimlari bilan ekskursiyani o'tkazish tartibini kelishib oladi va o'quvchilar mehnat faoliyatini kuzatadigan ishchilarni ajratish to'g'risida kelishib oladi. Ekskursiyadan oldin o'tkaziladigan mashg'ulotlardan biri o'quvchilarga bo'lajak ekskursiyani maqsadi va rejasini ma'lum qiladi, professiogrammalarning mazmuni bilan o'quv qo'llanmasi bo'yicha mustaqil tanishib chiqish topshirig'i beriladi.

O'quvchilarga ekskursiya natijasida javob berishlari lozim bo'lgan savollarni yozib olish tavsiya etiladi:

Sexda qaysi kasblar bo'yicha mutaxassislar ishlaydi?

U kasblardagi ishchilarni mehnat mazmuni va sharoiti qanday?

Ular ishni bajarishida qanday mehnat vositalaridan foydalanadilar, mazkur kasblar ishlovchilarning umumiy va alohida qobiliyatlariga, salomatligiga qanday talablar ko'yadi?

Ekskursiya vaqtida o'zingiz tanishgan kasblardan birini, masalan, mexanika-yigiruv mashinalari chilangari kasbini ta'riflang.

Ekskursiyaning borishi.

1. Kirish suhbatini va o'quvchilarga instruktaj berish. Ekskursiyadagi ishchilar mehnatining mazmuni, maqsadi, rejimi, ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalari haqida so'zlash beradi: o'quvchilar diqqatini turli ixtisosdagi ishchilar kasb faoliyatining xususiyatiga qaratadi; ob'ektning ko'rinish vaqtidagi mehnat xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiradi.

2. Ob'ektning ko'rib chiqish. Sexdagi yigiruv ishlarining turlari bilan tanishish, mexanika-yigiruv ishlarini chilangari bajaradigan usul va operatsiyalarni, uning mehnat sharoiti va mazmunini kuzatish. Ishchi bilan uning kasbi, bilim va malakasiga, salomatligiga, shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablarni aniqlash maqsadida suhbat o'tkazish.

3. YAkunlash. Ekskursiya oldidan berilgan savollar bo'yicha o'quvchidan so'rash. Kasbning tafsilotini yozish uyga vazifa qilib beriladi. YUqorida qayd etilgan namunalar asosida ekskursiyalar tashkil qilinadi va ekskursiya jarayonida o'quvchilarda kasbga qiziqish hosil bo'lishiga erishish maqsad qilib qo'yiladi.

§2.3. To'garak mashg'ulotlari va turli madaniy umumiy tadbirlar o'tkazishda kasbga yo'llash

Uzluksiz boyib borayotgan milliy mehnat an'analari va respublika maktablari pedagogik jamoalarining tajribalarini hisobga olish tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning quyidagi shakllarini ham oydinlashtirish imkonini beradi:

-mexanizatorlar, paxtakorlar, chorvadorlar, cho'ponlar, yilqichilar, bog'bonlar, soxibkorlar, sabzovotchilar kunlari;

-an'anaviy milliy bayramlar navro'z, gullar bayrami, hosil bayrami, nozanda, sumalak va xokazolar.

-Milliy mehnat an'analari, odatda marosimlar (masalan xashar).

Kasbga yo'llashda milliy an'analardan, boshqa metod va vositalar bilan birlikdagina samarali foydalanish mumkin. O'quvchilarning ishlab chiqarish brigadalarini, to'garak ishlari, xususan, o'zbeklar mehnatining eng an'anaviy turlarini o'rganish to'garaklari, mehnat bayramlari, taniqli kishilar bilan uchrashuvlar o'quvchilarni xalq an'analari ruxida tarbiyalash uchun keng imkoniyat ochadi. Masalan, "nonni e'zozlang" mavzusida o'tkaziladigan kecha katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'qituvchi bilan birgalikda non kombinatining ilg'orlarini mexmonga taklif qiladilar. Bu mexmonlar g'allakorlarning qiyin xayrli mehnati to'g'risida so'zlab beradilar, bolalarning kombinatdagi kasblar haqida bergan savollariga batafsil javob qaytaradilar. SHu maktabda o'qigan mehnat zarbdorlarining xiqoyasi juda qiziqarli bo'ladi. Mexmondan o'z kasbini qanday tanlagani so'ralganda, u 10 yil burun ishchi bo'lishga axd qilganini va bilim yurtiga o'qishga kirganini aytadi. Uning xiqoya qilishicha maktabni bitirgach, ko'p narsa unga g'ayrioddiy bo'lib ko'ringan. Kitob o'qish kino, teatr, muzeylarga borish uchun bo'sh vaqti bo'lishi yoki bo'lmasligi haqida o'ylagan. Lekin xadiksirashi bexuda bo'lib chikkan. O'quv yurtidagi kun

tartibi hamma narsaga vaqt etadigan tarzda yo'lga qo'yilgan ekan. U ishchi iktisosligini egallash bilan birga umumiy ta'lim va nafosat tarbiyasi ham olgan, sport bilan shug'ullangan. Xozir esa mamlakat uchun eng kerakli korxonon-kombinatida ishlamoqda.

Bolalarni o'quvchilar jamoasining an'analari ro'xida tarbiyalash ham sinfdan tashqari ishlarda katta ahamiyatga egadir. Maktablarda anchagina yaxshi an'analar mavjud. Bular birinchi ko'ng'iroq, oxirgi ko'ng'iroq, maktabning sobiq bitiruvchilari bilan uchrashuv va boshqa tadbirlari o'tkazishdir. So'ngi yillarda maktablarda mehnat an'analari ham keng tus olmoqda va ularni mustahkamlash juda ham muhimdir. O'quvchilarning turli qo'llanmalar tayyorlashi maktabxonalarini boyitishda yordam beradi. Ularning bog'lar va gulxonalarni barpo etishda ko'chalar va xiyobonlarni ko'klamzorlashtirishda qatnashishlari sharaflimehnat an'anasi bo'lib qoldi. SHuningdek, jamoa xo'jaliklariga turli yumo'shlarni bajarishda ko'maklashish ham yaxshi mehnat an'anasiga aylandi. O'quvchilarning dexqonchilikdagi ijtimoiy foydali unumli mehnati juda katta tarbiyaviy axamiyatga molikdir.

Ijtimoiy foydali mehnatga alohida e'tibor berish kerak. O'quvchilar mehnat darslari uchun materiallar to'plash, makulatura, metall parchalari yig'ish, bolalar texnik ijodiyoti ko'rgazmalari uchun modellar va priborlar tayyorlash kabi ishlarda qatnashishlari, maktabni, uning buyumlarini, tuzatishda baholi qudrat yordam beradilar.

Murabbiylarning o'quvchilarni tarbiyalash soxasidagi eng muhim vazifasi o'g'il va qizlarda o'zlari tanlagan kasbga qiziqish va muxabbatni oshirish, ularni korxonon jamoasiga yaqinlashtirish orqali ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, o'quvchilarni korxononaning mehnat an'analari bilan tanishtirish; ularda mehnatga mas'uliyatli munosabatni yanada takomillashtirish va xokazolardan iborat. Kasbga yo'naltirish to'garagining asosiy vazifasi o'quvchilarga o'zlarini shaxs sifatida anglashlarida, o'zlarining psixik xususiyatlarini tushunib olishlarida yordam berish; ularning e'tiborini kasb tanlash masalasiga qaratish, kasb tanlashni hayotdagi ahamiyatini yoritish; kasbni to'g'ri tanlash uchun, jamiyatga foyda

keltirish uchun ma'naviy sifatlarni shakllantirish zarurligini ko'rsatishdir. Kasbga yo'naltirish va to'garak vazifalari yuqorida zikr etilgan tarbiya jarayonlarida ham xal etilishi ko'zda tutiladi.

O'quvchilarga beriladigan ijodiy topshiriqlar (insholar, psixologik masala va vaziyatlar, referatlarni yoklash va boshqalar) ularda to'garak ishiga qiziqishni oshiradi.

Texnika to'garagidagi mashg'ulotlarda shahar va qishloq maktablarining o'quvchilarida kasb korlikda qiziqishni tarkib toptirish shartlarining farqi yaqqol namoyon bo'ladi. SHaharlik o'quvchilar o'zlarining texnikaga individual qiziqishlarini rivojlantirish imkoniyatiga egadirlar, ya'ni shaharda texnika to'garaklarining soni ko'pligidan tashqari, ularning har xil turlari ham mavjuddir.

SHuni nazarda tutib qishloq maktablarida ham aviomodelchilar, avtomodelchilar, elektrotexniklar va boshqa texnika to'garaklarini tashkil qilish kerak. Ularda o'quvchilarning sanoat ishlab chiqarishi uchun zarur ko'niknalarni egallashga imkoniyat yaratish lozim. Bunda to'garaklar ishini maktabdan tashqari muassasalar va umumiy ta'lim maktablarining dasturi asosida olib borish mumkin.

To'garak qatnashchilarining ko'pchiligi maktabni bitirgach ixtisosligiga muvofiq kasblarni ishonch bilan tanlaydilar.

O'quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatga mas'uliyatli munosabatini ta'minlaydigan motivlashtirish sohasining rivojlanishi muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun maktabning oila va ishlab chiqarish bilan aloqasini bevosita amalga oshiradigan sinf rahbarlarining maqsadga muvofiq faoliyati zarur. Xususan sinf rahbari har bir o'quvchiga, uning oilasiga tushuntirish ishlarini olib borib, oilaning tarbiyaviy ishlarini yo'lga soladi. Mehnat tarbiyasining har qanday, hatto, eng mukammal sistemasida ham bolalarning kelajakdagi taqdiri ota-onalarini xayajonlantirmay qolmaydi. Ota-onalar ta'sirining oqilona va ko'chli bo'lishini ta'minlash sinf rahbarining muhim vazifasidir. Bo'sh vaqtni tashkil qilish esa o'quvchilarning kasbga qiziqtirish va moyilligini yanada rivojlantirishga yordam berishi kerak.

Ota-onalar oiladagi mehnat tarbiyasining mazmuni haqida umumiy bilimlarga ega bo'lmalarda, ko'pincha uni tashkil qilishda ancha qiyinchiliklarga duch keladilar, tarbiyaning yo'llari va usullarini bilmaydilar. Ular odatda bolalarni tarbiyalashning umumiy yo'l va usullaridan foydalanadilar. Usul va yo'llarning mehnat faoliyati motivlarini rivojlantirish jihatdan eng samaralilarini ajratish lozim.

Bu usullar uch guruhga bo'linadi: kasb-kor bilimlari berish usullari, kasb-kor yo'nalishini aniqlash usullari, o'quvchilarni kelgusidagi mehnatga amaliy ravishda tayyorlash usullari.

Kasb-korlik bilimlarini berish usullariga: kasblar bo'yicha tanishuv suhbatlari, birgalikda mehnatkashlar haqidagi, mehnat faoliyatining har xil turlari haqidagi, turli kasb egalari haqida kitoblarni o'qish, kinofilmlarni ko'rish va muxokama qilish; bolalar bilan birga ularning ota-onalari ishlaydigan korxonalar, tashkilot, jamoa xo'jaliklari, fermalar va shu kabilarni kuzatish ustaxonalariga borish va boshqa tadbirlar kiradi.

Kasb-kor yo'nalishini aniqlash usullariga: o'quvchilarning amaliy faoliyatini maqsadli kuzatish uslubi, muammoli vaziyatni vujudga keltirish uslubi, mehnatning har xil turlarini tajriba uchun tashkil qilish uslubi va xokazolardan iboratdir. Ana shu tadbirlar bolalarning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Nixoyat, mehnatning muayyan sohasiga ishlashga amaliy ravishda tayyorlash uslublari. Tanlangan kasbga oilada amaliy ravishda tayyorlash oila tarbiyasining zaif joyi bo'lib qolmoqda. Kasblar bo'yicha bilimlar berish va kasbga yo'naltirishni ozmi-ko'pmi amalga oshirayotgan ayrim ota-onalar bolalarga muayyan mehnatni amaliy ravishda o'rgatishda yordamga muxtojdir.

O'quvchilarning o'z kasblarini aniqlab olishlari faqat maktabning ana shu yo'nalishda muntazam yo'sinda olib boradigan muvaffaqatli ishlariga emas, balki oiladagi tarbiyaga ham bog'liqdir. Lekin ota-onalarning kasb tanlashga ta'siri har doim ijobiy bo'lavermaydi. Chunki ularning ko'pchiligi o'z bolalarining qiziqishi, moyilligi, qobiliyatlari va tanlagan kasblarning xususiyatlari to'g'risida etarli

darajada yaqqol tasavvurga ega bo'lmaydilar. Ota-onalar o'z bolalarida hayotiy rejalarini shakllantirishga to'g'ri yondasha olmasliklari sababli xatoga yo'l ko'yadilar. Ular bolalarining haqiqiy imkoniyatlari bilan hisoblashishni istamaydilar, ba'zan o'z bilganlaricha ish tutaveradilar, o'z obro'larini kuchi bilan bolaga kasbni zo'rlab yopishtiradilar. Ko'pincha bolalarga yordam berishni astoydil istagan ota-onalar ham bu ishni qanday amalga oshirish kerakligini aniq bilmaydilar. Ana shunday xollarda maktab ota-onalarga ko'maklashuvi lozim. Bunda, avvalo, ota-onalarga pedagogik bilimlar berishga tabaqali yondoshishni ta'minlash kerak.

O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dastu-ri»da maktablarning eng muxim vazifalaridan biri o'quvchilarning ongli ravishda kasbga yunaltirish deb qayd qilingan.

O'quvchilarning ongli ravishda biron-bir kasbni tanlashlari uchun kasbga yunaltirish ishlari tugri tashkil etilishi lozim. Buning uchun maktablarda kuyidagi ishlarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

O'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari o'rganilishi (maktab psixologi).

Jamiyatning bugungi extiyojlari, mamlakatimizning ijtimoiy- iktisodiy rivojlanishi uchun kerak bulgan kasblar hfqida o'quvchilarga tushunchalar berish (ma'ruzalar yordamida).

Kasb hunarni egallash uchun o'quvchilar kasb-hunar kollejlariga borib o'rganishlari mumkinligini tushuntirish.

Maktabni bitirib, kasb-hunar kollejlaridagi tayyorlov yo'na-lishlarini tanlagan yoshlar o'z mahoratlarini oshirib borishla-ri, ishlab chik.arishning xak.ik.iy ustalari sifatida komil in-son bulib etishishlari ta'lim islohotining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini bitirgan o'quvchilarning 90% kasb-hunar kollejlariga, 10% esa akademik litseylarga ukishga bo-rishlari mumkinligini tushuntirish. Bunday ijtimoiy talab-larni krndirish mak.sadida maktabda kasbga yunaltirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni mazmunan yangilash, izchil yulga

kuyish zarurligiga yuzaga kelmokda. Dars jarayonida xalk. xujaligida bevosita ishlab chikarish bilan mashgul mehnat axdlariga xurmat va izzat tuygularini singdirib borishga aloxdsa e'tibor k.aratish zarur.

Kasb-hunarga yullash buyicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o'quvchilarning ongli, maksadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat kilishi lozimdir.

Maktabda kasb-hunarga yunaltirish ishlarini yulga kuyishda an'anaviy amaliy mashgulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, konferensiya, mustakil fikrlavd, mahalla, ishlab chikarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda utkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya element-laridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlariga asosan maktabda kasbga yunaltirish buyicha mashgulotlar 8—9-sinflarda amalga oshiriladi. 8-sinfda kasblar xakida « o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi» asosida axborot berish davom ettirilishi bilan bir katorda o'quvchilarga kasb egallash yullari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqdiklar, kasbga yaroqdilik va xakazolar tushunchalari berib boriladi.

Maktabda o'quvchilarni kasb-hunarlarga yo'naltirish birgina mehnat ta'limi o'qituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, maxalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalik-dagi ishidir. Maktabda fan o'qituvchilari mavzuni yoritish jara-yonida kasblar bilan boglab utishsa, maktab psixologi va rahbariyati o'quvchilarning individual krbiliyatlari, kizikishlarini xisobga olgan xrla ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishsagina o'quvchilarga kasb tanlashlarida kumak bergan bulishadi.

8-SINFDA «KASBGA YUNALTIRISH ASOSLARI» KURSIDAN MLSHRULOTLAR MAZMUNI

Uzbekiston Respublikasida bozor ik.tisodiyotiga utish sharo-itida xalk; xujaligining isloh kilingan strukturasi.

O'quvchilarni kasblar olami mehnat faoliyatining turlari bilan tanishtirish. Ijtimoiy taklifni to'g'ri tushuncha berish.

Mashg'ulot: Mamlakatimiz xalq, xujaligining bozor iqtisodiyoti munosabatlariga utish davrida o'quvchilarni kasbga yunal-tirishning maqsadi, vazifalari va shart-sharoitlari. O'quvchilarni o'z qobiliyati, xudavasi, intilishi, kasbiy tayyorgarligi darajasi va xalq. xujaligining kadrlarga ehtiyojini hisobga olgan holda xayotda o'ziga munosib urinish topishi haqida. Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; fuqarolarning mehnat qilishi va kasb tanlashi haqida. Uzbekiston Respublikasining «Ta'lim tuzilishidagi Konuni», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumiy o'rta ta'lim bosqichini tugatgan o'quvchining hohish-irodasi va intilishiga qaratib akademik litseyda yoki kasb-hunar kolleji-da ta'limni ixtiyoriy-majburiy davom ettirish xukmi tuzilishida. o'quvchi o'quvchi

Mashg'ulot. Xalq, xujaligi tarmokdardagi kasblar tasnifi. Kasblarni tarmokdar buyicha tasniflash. Xalq. xujaligining barcha tarmokdari, soxdlardagi kasblar, ularning o'ziga xos xususiyat-lari haqida. Xalq. xujaligi tarmokdarining mutaxassislariga bulgan ehtiyoj va taklifi haqida. Tarmok. kasblarida talab qilinadigan bilim, malaka, kunlik haqida ma'lumot beriladi.

Mashg'ulot. Kasb tanlashning maqsadi va shart-sharoitlari. Kasb tanlash formulasi va uning asosiy tashkil etuvchilari. Kasb bilan bog'liq muhim ixtisoslik fazilatlarini rivojlantirish-da o'quvchi shaxsi, o'zini o'zi tarbiyalashning ahamiyati.

Sanoat, kishlok. xujaligi ishlab chikarishi, maishiy xizmat, tijorat yunalishidagi kasb-korlarda mehnat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qiyish, yoshlarga shu yunalishdagi kasblar haqida ma'lumot berish.

O'quvchilarning kasb tanlashga qiziqishi, egallanayotgan kasbga xududiy ehtiyoj, kasbga moslik, layokatlilik. Tibbiy jihat-dan muvofiq kelishi haqida. O'quvchilarni o'zini o'zi baxrlashga yunal-tirish, haqida ma'lumot beriladi.

4-Mashg'ulot. Kasblar haqida umumiy ma'lumotlar.

«Xalq. xujaligi « tushunchasi. Bozor iqtisodiyoti davrida xalq. xujaligining asosiy tamoyillari. Xalq. xujaligi tarmokdarida band bulgan kasblar. Kasblarni

tarmokdar buyicha tasniflash. Mulkchilikning turli shakllarida mehnatkashlarning bandligi.

Kasblarning mehnat predmeta buyicha guruxdanishi: «Odam— tabiat, «Odam — texnika», «Odam — odam», «Odam — belgilar tizimi», «Odam — badiiy obraz».

Maktab atrofidagi ishlab chikarish korxonalarida keng tarkalgan kasblar xakida ma'lumot.

Kasb turlari, bulimlari, guruxdari.

Kasblarni mehnat makradi, vositalari va sharoitlari buyicha tasniflash. Kasblarni tasniflashning kup pogonali jadvali.

Amaliy ma'g'ulot. Mahalliy kasb-hunar kollejlarida tayyorlanayotgan ixtisosliklar buyicha kasb formulasi (kasb turlari, bulimlari, guruxdarga ta'allukdigini namoyon qilish va \.k.) ni tuzish.

Mashg'ulot. Kasb mutaxassisligi va ixtisosligi xakida tushunchalar. Xalk. xujaligida keng tarkalgan kasblar. Mehnat ta'limidagi yunalishlar va ularning kasblar bilan bog'likligi.

Mutaxassislikning bevosita ishlab chikarish jarayoni bilan bog'likdigi. Xalk. xujaligida, viloyat xududlarida keng tarkalgan mutaxassislik va muayyan ixtisosliklar xakida tushuncha berish.

Mehnat ta'limi jarayonida dastlabki kasbga tayyorgarlikni amalga oshirish. O'quvchilarni uzi tanlagan mutaxassisliklarda kuchlarini, imkoniyatlarini sinab kurish.

Mashg'ulot. Tarmokdar buyicha ishchi kasblarning tasnifi.-Mehnat bozori va uni tashkil etish shakllari. O'quvchilarni kishlok. xujaligi, ishlab chikarish, maishiy xizmat soxalari bilan tanishtirish. «Professiogramma tushunchasi. «Professiogramma», uning maksadi, vazifasi, ta'rifi, mazmun-mohiyati va tuzilishi.

«Psixogramma tushunchasi. Kasb psixogrammasi- professiogrammaning markaziy elementa sifatida.

Amaliy ish: Maxdliiy xudud iktisodiyoti extiyoji uchun kasb-hunar kollejida tayyorlanayotgan kichik mutaxassis ixtisoslikla-ridan birining kiskacha bayonini tuzish.

Mashg'ulot.Kasb tanlash k,oidasi (uchburchagi). O'quvchilarda kasblarga talab, imkoniyat va k.izikishlarni tarbiyalash. Respublika, viloyat, tuman xalk. xujaligining kasblarga bulgan extiyoj-larini va takliflarini xisobga olish. Kasb mazmunini ishchiga kuyadigan talablari,ish sharoitlari, kerakli bulgan bilimlar zarur bulgan kunikma va malakalarni egallash yullari.

Insonning yuksak fukdrolik, axlokiy sifatlariga, ma'lumot darajasiga: politexnikaviy yunalishdagi bilimlari va kunik-malariga; umumiy va maxsus krbiliyatlariga; salomatligi xrla-tiga kuyiladigan umumiy talablar. Kasb tanlashni cheklovchi ka-salliklar va mexnat sharoitlari hak.ida tushuncha. Kasb tanlashda odamni shaxsiy fiziologik sifatlarini, aloxida talablar kuyadi-gan kasblar bilan maxalliy kasb-hunar kollejida tayyorlanayot-gani, maktab atrofidagi korxonalarda mashtul bulgan mutaxas-sislar misolida tanishish.

Mashg'ulot.O'quvchining kasb-hunar yunalishini tanlashga bulgan kizikishlar, moyilliklar krbiliyatlarini uygunlashti-rish. O'quvchilarni «kasbiy kizikish» tushunchalari bilan tanishtirish. O'quvchilarning kdzik.ishlarini inobatga olib ular bilan suhbatlar utkazish. O'quvchilar k.izik.ishlarini sharxdab berish. Kasblarga moyillik, extiyotkorlik orasidagi mutanosiblik. Kasb tanlashda o'quvchilar moyilligini mustak.il ravishda tugri baxrlash ex,tiyojini shakllantirish. «Kasbga k.izik.ish», «Moyillik» xakdsa tushuncha. Kasbga kizi-kishning rivojlanish boskichlari. Bilishga klzi*dish. Kasbga, bi-lishga bulgan chukur va barkdror kizikishlarni namoyon kdladi-gan tatsmji alomatlar. Kizikdshning moyillikka aylanish jarayoni.

Amaliy mashrulot: «Kizik.ishlar xaritasi «metodikasi buyicha 8-sinf o'quvchilarining ukuv, mexnat va ijtimoiy faoliyatining turli soxalariga bulgan k.izikishlarini anikdash.

asb-hunar kollejida tayyorlanayotgan kichik mutaxassislardan birining professiogrammasini kuyidagi kursatgichlar buyicha ishlab chikish: kasbga

taallukdi bulgan tarmokdarni kiskdcha ta'rif-lash; mexdga predmeta, mexdat kuroli; mexnat sharoiti; kasbning odamga talablari: tibbiy jihatdan kimlarga tugfi kelmasligi,ush-bu kasb-hunarni egallash yullari; mazkur kasb buyicha kadrlarga bulgan extayojning holati; malakasini oshirish istikbollari va h.k.

Kasbga klzikish va moyilliklarni shakllantirish. Kizikishlarni rivojlantirishning asosiy boskichlari va ularning tavsifi. Kasbga diziidsh va moyilliklarni mehnat, ukuv, ulkashunos-lik, sport, tashkilotchilik kabi faoliyat turlarida shakllantirish imkoniyatlari. Sinfidan tashk.ari kizikishlarni rivojlantirish.

Kasb tanlashda uzining kizikishi va moyilliklarini ob'ektiv baxrlashga ehtiyojini shakllantirish tugrisida tushuncha.

Mashg'ulot.Xududda mavjud bulgan ishlab chikarish korxonalariga ekskursiyalar uyushtirish.

Mashg'ulot.Uzbekiston Respublikasi xalk, xujaligida band bulgan kasblar turlari.

Kasblarni mexnat pedmeti buyicha klassifikatsiya kilish. «Odam — belgilar tizimi», Odam — badiiy obraz» kasb turlari xakida umumlashtiruvchi ma'lumotlar.

Mashg'ulot.Kasblarni tasniflash buyicha umumlashtiruvchi ma'lumot. Kasb tanlash formulasi.

Kasblarni mexnat maksadi, vositalari va mehnat sharoitlari buyicha tasniflash. Kasblarning sinflari, bulimlari, guruxdari. Kasblar tasnifini umumlashtiruvchi sxema. Kasb tanlash formulasi.

Mashg'ulot.Kasbkorning odamga umumiy talablari. Inson-ning yuksak fukrrolik, axdokiy sifatlariga: politexnikaviy xa-rakterdagi bilimlari va kunikmalariga; umumiy va maxsus krbi-liyatlariga; salomatligi xrlatiga kuyadigan umumiy talablari.

Kasb tanlashni cheklovchi kasalliklar va mexnat sharoitlari xakida tushuncha. Kasbning odam shaxsiy psixologik, fiziologik sifatlariga kuyadigan umumiy talablari.

«Professiografiya» xakida tushuncha. Uning maksadi, vazifasi mazmun-moxiyati va tuzilishi. «Professiogramma», «psixogramma» xdkida tushuncha.

Odam salomatligi va shaxsiy psixofiziologiya sifatlariga alohida talab kuyadigan va kuymaydigan kasblar professiogrammalarini maxalliy, xududiy kasblar misolida k.iyosiy urganish.

Mashg'ulot.Kasb-hunar kollejlarda ta'lim yunalishini tanlashda kasbiy yarokdilikning axamiyati.

Kasbga yarokdilik tugrisida tushuncha. Kasbga yarokdilik dara-jalari. Absolyut va nisbiy yarokdilik. «Individual faoliyat uslubi «tugrisida tushuncha. SHaxsning kasbga individual yarok.-liligining muxim sifatlarini baxrlash va takomillashtirish yullari. Kasbga yarokdilik — ukuv va mehnat faoliyatlarida shak-llanuvchi sifatdir.

Mashg'ulot.Kasblarni mustakil tanlash uchun zarur bulgan bi-lim, kunikma va malakalar. Kasb tanlashda yul kuyiladigan xatolar.

Xozirgi zamon ishlab chik.arishi va mexnatining ilmiy asos-lari; xalk. xujaligining ommaviy kasblari; kasbni egallash jihatdan uzining imkoniyatlari xayda bu imkoniyatlarni kengay-tirish yullari va vositalari (kasbga yarokdilik va moslashuv-ning shaxsiy omili) xakidagi bilimlar.

Uzining shaxsiy moyilligini, krbiliyatini, professional imkoniyatlarini ob'ektiv baxrlash;

Kasb tanlash kridasini bilmaslik tufayli sodir buladigan xatolar. Kasblar olamini bilmaslik tufayli paydo buladigan tipik xatolar.

Mashg'ulot.Kasb tanlashda o'quvchining salomatlik xrlatini xisobga olish. Turli kasblarning odam salomatligiga kuyadigan talablari tugrisida umumiy tushuncha. Uzbekiston Respublikasi-ning «Mexnat hakidagi Konunlari kodeksi»da usmir bolalar mex,-natini muxrfaza k^lish tugrisida. Uzbekiston Respublikasining «Ta'lim tugrisida»gi Konuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dastu-ri»da ta'lim oluvchilarning soishgini sakdash va mustahkamlash uchun zarur choralar kurish tugrisida.

O'quvchilarda kup uchraydigan xastaliklarni tasniflash va ularga tugri kelmaydigan kasb va mehnat faoliyat turlarini anikdash.

Mashg'ulot. o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ukishga moslashuvning bosk.ichlari va shart-sharoitlari.

Kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislikni egallash ja-rayoni. Amaliy kunikma va malakani egallash. Malakaviy bitiruv ishlarining mazmuni. Ishlab chikarish korxonalarida utka-ziladigan amaliyot. Ukuv-ishlab chik.arish sexlari.

Mashg'ulot.Kasb- korni egallash yullari

Kasb-hunar kollejlari va ularning turlari: Maxalliy xududiy kasb-hunar kollejlari tugrisida umumiy ma'lumot.

o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limidagi tayyorlov yunalishlari. Ularda tayyorlanayotgan kasblar, mutaxassisliklar umumdavlat tas-niflagichi. Me'yoriy hujjatlar. Ta'riflar.

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yunalishlari, kasblar va mutaxassisliklar tasniflagichiga uzgartirishlar kiri-tish tartibi.

Mashg'ulot.Tanlagan kasbi buyicha bevosita ishlab chikarishda uzini sinab kurish. Kasbga loyikdik tushunchasi.

Uz kuchini «kasbiy sinash» tushunchasining mohiyati. O'quvchilar mexnat faoliyatining asosiy soxalari. Uz kuchini kasbiy sinab kurishni tashkil etish.

Ukuv vaktida va ukuvdan tashk.ari vak.tda mexnat tayyorgarligi jarayonida o'quvchilar bajargan kasbiy sinashlarni xisobga olish. Kasbiy sinash natijalari asosida uzini-uzi bax,olash va ekspert baxrlash. Kasbga yarokdilik.

10. Akademik litsey yoki kasb-hunar kollejiga ekskursiya uyushtirish.

III –BOB Kasb-hunarga yunaltirishning interfaol usullari

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yoshlarga ta’lim-tarbiya berish ishlarini tubdan yaxshilash masalasi qo‘yilgan. Jumladan, dasturda: «Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ruyobga chiqarishning sharoitlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy hulqatvorning andozalarini o‘zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan is-loxatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Halkning boy intellektual merosi va umumbashariy Kadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fantexnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muxim shartidir», - deb ko‘rsatilgan. Bu vazifani uddalash o‘qituvchi tarbiyachilarimizdan katta kuch va g‘ayrat bilan ishlashni takozo etadi. Binobarin halqimizning ezgu niyatlariga, jamiyatimiz o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlarga erishish, eng avvalo, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularni joy-joyiga qo‘yish bilan bog‘liq. Shu sababli Respublikamiz hukumati istikdol yo‘lidagi dastlabki kadamlaridanoq kadrlar tayyorlash masalasiga katta ahamiyat bermoqda.

Malakali kadrlarni tayyorlashda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash bo‘yicha olib boriladigan mashg‘ulotlar muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi vazifalarni amalga oshirishda markaziy o‘rin tutuvchi mexnat ta’limiga kasb-hunar ta’limining boshlang‘ich bug‘uni sifatida o‘arash zarur. SHu sababli bu sohaga oid mashg‘ulotlarni olib borish ishlarini takomillashtirish, zamon talablariga moslashtirish oldimizda turgan zarur vazifalardan hisoblanadi. Jumladan, yoshlarni o‘qitish usullarini takomillashtirish, bunda o‘quvchilarning faolligini oshirish yukorida aytilgan asosiy vazifalardan biridir. Buning uchun yangacha, faol o‘qitish usullaridan, noan‘anaviy darelardan foydalanish kerak. Ishni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi oddiy tinglovchidan faol o‘rganuvchiga aylansin. O‘qituvchi esa, o‘z navbatida, darsda faqat so‘zlab beruvchi emas, balki o‘quvchilarning o‘zlarini o‘zlari uchun ishlata

oladigan bo‘lishi kerak. quyida tavsiya etilayotgan metodlar bu boradagi tavsiyalarni amalga oshirishda yordam beradi.

O‘quvchi-yoshlarni kasb tanlashga yo‘llashda mehnat ta’limi asosiy, etakchi omillardan bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumki, umumta’lim maktablarida mehnat ta’limi darslari 1-sinfdan 9-sinfga qadar o‘qitiladi. Ko‘rinib turibdiki, mehnat ta’limi o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim olish davrini to‘laligicha qamrab oladigan o‘quv predmetlardan biri sanaladi.

I-IV sinf o‘quvchilarining ko‘pchiligi ustachilik qilishga, mohir hunarmanlarga o‘xshab chiroyli va to‘kis buyumlar yasashga intiladilar. Bu boradagi istaklarini ro‘yobga chiqarishga intilish tuyg‘usi o‘quvchilarni maktab us-taxonasi bag‘riga tortib turadi. Tanaffus paytlarida va o‘quv mashg‘ulotlari nihoyasiga etganidan so‘ng, ular katta yoshdagi o‘quvchilar qanday ishlayotganligi, nimalar yasayotganligini bilishga harakat qiladilar.

Boshlang‘ich sinfni tugatib, V sinfga o‘tgan o‘quvchi nihoyat o‘quv ustaxonasiga kirib keladi. Bu davrda bolalar juda qizikuvchan, tirishqoq bo‘ladilar va ishtiyok; bilan amaliy topshiriqlarni bajaradilar. O‘quvchidagi bu qiziqish va g‘ayratni oshirish va rivojlantirish uchun o‘qituvchidan yuksak kasbiy mahorat talab etiladi, chunki "O‘tish davri"da bolalar bir xillik, bir maromlilikdan tez charchaydilar, tirishqoqlik va qiziqishni yo‘qotadilar.

Bolalardagi "O‘tish davri", shveysariyalik psixolog Jan Piaje (1876-1980)ning fikricha, ularda **ob’ekt** va umuman borliq haqida mavhum fikrlarning etilishi bilan bog‘likdir. Fikrlash faoliyatining murakkablashishi bola hayotining barcha tomonlariga, uning hissiyotiga ta’sir ko‘rsatadi.

Amerika psixologi Erik Erikson (1902- 1994) fikricha, bu davrda bolada o‘z maqsadiga erishishi yo‘lida "ishbilarmonlik" va "ta’sirchanlik" sezgilari paydo bo‘ladi, mehnatga munosabatning asosi tarkib topadi.

"O‘tish davri "data bolalarga hayolparastlik hislati hosdir. O‘quvchilarning "O‘tish davri "dagi turli psixik holatlari hisobga olinsa, ta’limning samaradorligi ortadi. SHu sababdan metodika va pedagogik psixologayadan o‘quv ishlarining

eng yaxshi usullarini tanlashga, ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytiradigan omillardan foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, o'qituvchi faoliyatidagi dars mashg'uloti olib borish usullaridagi bir hillik o'quvchilarning mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashga oid ishlarga bo'lgan qiziqishlarini susaytiradi. Buning oldini olish maqsadida darsda o'quvchilar faoliyatining xilma-xilligini ta'minlash ko'p o'quv predmetlari qatori mehnat ta'limining ham diqqat markazidagi asosiy vazifalaridan bo'lib, hozirgi paytda o'quvchilarning mehnat ta'limi darslariga qiziqishini orttirishda ta'limning faol, noan'anaviy usullaridan keng foydalanish juda ham zarur bo'lib qoladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ilg'or, tajribali, ijodkor o'qituvchilar zamonaviy dars talablariga mos keladigan sinov, seminar, konferensiya, viktorina, test, teatrlashgan dars kabi turli noan'anaviy darslardan o'z o'rnida foydalanib kelishmoqda.

3.1§ Mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limida konferensiya darsi

Mexnat ta'limida noan'anaviy usulda o'quv amaliyot mag'shulotlarini o'tkazish o'quvchilarning ijodkorligini, izlanuvchanligi va mustakil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday ishlardan biri sifatida V-VII sinflar uchun berilgan dasturning ayrim bo'limlaridagi mavzular o'rganib bulingach, umumlashtirish-takrorlash mashg'ulotlarini zamonaviy (noan'anaviy) dars sifatida konferensiya darsi qilib o'tkazishni tavsiya qilish mumkin.

Masalan, VI sinf mehnat ta'limi darsida "YOgochlarni ishlash" bo'limi o'rganiladi. Bu bo'lim yogoch ma-teriallarining olinishi, turlari, tuzilishi, ishlatilishi, hususiyatlari va turli xil duradgorlik buyumlarini yasash kabi mavzularni qamrab oladi. SHu bo'lim yuzasidan olingan bilimlarni kengaytirish va atroflicha o'rganish uchun konferensiya darsi tashkil qilish mumkin. Dars davomida o'quvchilar pedagogik va psixologik tomondan kuzatib boriladi. Avval o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlarini xisobga olib, ularni uch guruhga bo'lib olinadi:

1-gurux: o'lkashunoslar;

2-guruh: duradgorlar;

3-guruh: tadbirkorlar. o'qituvchi konferensiya darsi bo'lishidan oldin guruxdarga kanday manbalardan foydalanish va fikr yuritish yo'nalishlari hakida ko'rsatmalar beradi. Bunda o'qituvchi sinfdan tashkari manbalar: adabiyotlar, radioeshittirish, teleko'rsatuv va matbuot materiallari hamda mahalliy dalillardan foydalanishni o'quvchilarga tavsiya etadi. o'quvchilar shular asosida tayyorgarlik ko'rib, rang-barang materiallarni yig'ib keladilar.

Konferensiya darsining rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Darsning maksadi:

a) o'quvchilarning yog'ochlarni ishlash bo'yicha olgan bilimlarini mustaxkamlash, umumlashtirish, kengaytirish va ularni amalda qullay olishga o'rgatish;

b) o'quvchilarni tabiatni sevishga, inson mehnatini qadrlashga, tejamkorlikka, tadbirkorlikka va ishbilarmonlikka o'rgatish;

v) o'quvchilarning o'lkashunoslik, duradgorlik va sotuvchilik soxalariga oid kasblarga bo'lgan qizikishlarini rivojlantirish.

Dars uchun quyidagi jihozlar hozirlanadi:

a) jahon geografik haritasi;

b) yog'och namunalari to'plami;

v) yog'och turlarini aks ettiruvchi ko'rgazma;

g) turli hil duradgorlik buyumlari; ---

d) stanoklar, duradgorlik o'lchov va asboblari

e) sotuvchilik rastasi va unga quyilgan duradgorlik buyumlari;

j) ustalar, sotuvchilar hakida ma'lumot va ularning ishlaridan namunalari;

z) maktab hisobiga keltirilgan foyda hakidagi ko'rsatkichlar.

Konferensiya mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi

Boshlovchi: Assalomu alaykum, xurmatli o'quvchilar!

Bugungi yoyuchlarni ishlash mavzusiga bag'ishlangan anjumanimizni boshlaymiz. Anjumanda yosh o'lkashunoslar, duradgorlar, tadbirkorlar qatnashmokda. So'z yosh o'lkashunoslarga, marhamat!

1-o'lkashunos: Ma'lumki, yog'ochlar muhim ko'rilish materiali hisoblanadi. YOg'ochlar daraxtlardan olinadi. Daraxtlar esa biz yashab turgan tabiatda o'sadi. Ularning juda ko'plab turlari mavjud: terak, tol, qayrag'och, bakaterak, chinor; mevali daraxtlardan esa olma, bexi, o'rik, olcha, yong'ok kabi daraxtlarni biz juda yaxshi bilamiz.

2-o'lkashunos: Daraxtlar barglarining tuzilishiga qarab ikki turli buladi: nina bargli va yaproq bargli.

Nina bargli daraxtlar asosan Evropa o'rmonlarida o'sadi, ularga archa, qarag'ay qabilar kiradi; keng yaproqli daraxtlarga oqqayin, dub, terak, qayrag'och, tol kabilarni misol keltirish mumkin (shu daraxt turlari o'sadigan joy-larni geografik haritadan ko'rsatib beradi).

3-o'lkashunos: Daraxt yaproqlari kuz faslida hazonga aylanib erga to'kiladi. Ko'pincha, daraxtlarning hazonga ay-langani yaproklarini e'tiborsizlik bilan yoqib yuborishga harakat qilishadi. Ana shu yongan yaproq tutunlari natija-sida atrof muxit zaharlanadi. Atmosferada zaharli gazlar ko'payib, inson salomatligiga zarar etkazadi. Ana shu za-rarning oddini olish uchun hazonlarni hovlimizdagi uy hayvonlariga emish sifatida yig'ishtirib olish kerak. SHundagina tabiatni muhofaza qilishga hissa qo'shgan va yangi daraxt nihollarining o'sib o'nishiga yordam bergan bo'lamiz.

Boshlovchi: Enda navbatni yosh duradgorlarga beramiz. Marxamat!

1 -duradgor: Duradgorlik kasbi juda qadimiy kasblardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamlarning paydo bo'lishi bilan yog'ochlarni ishlash ishlari qilina boshlangan. Ular o'zlariga turli hil mexnat va ov qurollari yasaganlar, ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan buyumlar tayyorlay boshlaganlar. Qaysi sohani olmang, duradgorlik ishlari mavjud. SHuning uchun u juda faxrli kasb xisoblanadi.

2-duradgor: YOgoch materiallari bizning faoliyatimizda asosiy xom ashyo bo'lib hisoblanadi. Tabiatdagi daraxt-larni kesib, arralab, taxta va brus shaklidagi

materiallar tayyorlanadi. Daraxtlar, asosan, ko'ndalang va uzunasiga arralab kesiladi. Kesishda butoq, yoriq, daraxt o'zagigi kabi turli xil nuqsonlar hisobga olinadi.

YOgoch materiallari ikki hil hususiyatga ega:

1. Fizikaviy hususiyati - rangi, tovlanishi, zichligi, elektr, issikdik o'tkazuvchanligi, hidi.

2. Mexanik hususiyati - mustaxkamligi, yumshokligi, kattikligi, egiluvchanligi, singdiruvchanligi, qayishqoqligi va hokazo.

3 - va 4- duradgor beshik tayyorlash jarayonida yog'ochga ishlov berish ishlarini amalga oshiradilar:

1. Beshik gardishini suv ichiga solib, egish ishlarini amalga oshiradilar.

2. Ostki taxtalarini tayyorlaydilar.

3. Gardishlar orasiga o'rnatiladigan dastaning (TSD -120 yog'ochga ishlov berish stanogida) tayyorlanishini ko'rsa-tadilar.

4. Qismlarni biriktirishni namoyish etadilar.

YUqoridagi ishlarni amalga oshirish uchun duradgorlar oldida tayyor va yarim tayyor qismlar hamda bitgan beshik bo'ladi.

Boshlovchi: Mana, biz yuqorida yosh o'lkashunos va duradgorlarning fikrlari, ishlari bilan tanishdik. Endi navbatni yosh tadbirkorlarga bersak. Ular o'zlarining tajribalaridan, bozorning sir-asrorlaridan so'zlab beradi-lar. Marxamat!

1-tadbirkor: Hozirgi davrda tadbirkorlik faoliyati har bir sohaga kirib kelmoqda. Bizning tadbirkorlik kas-bi ham duradgorlik kasbi singari ommalashmoqda. Inson yaralibdiki, hayotning har bir kunida bir necha marta savdo-sotiq va mol ayirboshlash, iqtisod bilan bog'liq masalalarga, muammolarga duch keladi.

Tadbirkorlik nima? Tadbirkorlik ishlab chiqarishni tashkil qilish, yo'lga qo'yish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sota bilish, tushgan pulni joy-joyiga sarflay olinadidir. Tadbirkor ishlab chikarish va tijoratning barcha zarur omillaridan boylik yaratish uchun foydalanadigan odamdir.

Bu ancha keng ta'rifga yaratuvchanlikning ko'pgina sohalari bilan shug'ullanuvchi odamlar to'g'ri keladi.

Tadbirkorlarga quyiladigan talablar moddiy boyliklar yaratuvchi boshka odamlarga quyiladigan talablarga qaraganda ancha kengrok.. Masalan, siz duradgorsiz deydik. Siz yashik, beshik, deraza va boshka anjomlar yasashga ustasi farang bo'lishingiz mumkin. Lekin, agar siz tadbirkorlik bilan shug'ullanishni boshlasangiz bu anjomlarni ishlab chiqarishdan tashkari:

- oldi-sotti, marketing, boshqarish, hisob-kitob, moliyalashtirish, kadrlar ishi bilan shug'ullanishingizga to'g'ri keladi.

Tadbirkorlik nimadan boshlanadi? Zamonaviy sharoitda tadbirkorlikning barcha turlari avj olmoqda. Ko'pgina korxonalarining xususiylashtirilishi ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yirik davlat korxonalari o'rniga kichik, chaqqon, har qanday sharoitga tez moslasha oladigan xususiy korxonalar paydo bo'la boshladi. Bir yoki bir necha kishilardan tashkil topib, kichik bir maxalla, tuman yoki shaharcha aholisiga xizmat ko'rsatadigan korxonalar (masalan, kichik non sexi, duradgorlik sexi, oyok kiyimlarni ta'mirlaydigan sex, tikuv-chilik sexi va h-k.)da tadbirkorlik kasbi juda hushyorlikni, bilimdonlikni, jur'atlilikni talab etadi. Biz tadbirkorlar tomonidan tayyorlangan buyumlarni o'z egasiga etkazib beramiz.

2-tadbirkor: Duradgorlik buyumlarini tayyorlash uchun qancha xom ashyo ketishini, ularga ketgan sarf-harajatni, olinadigan foyda hisoblarini aniqlaymiz. Buyumlarni tannarx asosida sotish uchun baho belgilaymiz. Albatta, baho belgilash bozorni o'rganish, undagi talab va takliflar natijasida amalga oshiriladi. Masalan, beshik tayyorlash uchun o'lkashunoslar sanab, ko'rsatib o'tgan mahalliy tol, terak daraxtlaridan olingan yog'och materiallaridan foydalanishimiz mumkin. **YOFOH** materiallarini juda tejamkorlik bilan ishlatishimiz kerak.

Iqtisod bilan ish yuritishimiz esa halol mehnat evaziga daromad olish va uni aql-idrok, tejamkorlik bilan zaruriy joylarga ishlatishdir. Isrof - iqtisod va tejamkorlikning aksi bo'lib, o'rinsiz, foydasiz va xayrsiz ish-larga pul va mol sarf qilishdir. «Sen agar isrof etishni tashlading, ul zamon davlat etagin ushlading», - deb bejiz aytilmagan.

3-tadbirkor: (Savdo rastasi oldida turib sotuvchilik kasbi hakida gapirib beradi):

Savdo sohasida juda to'g'rilik va halollik bilan ish ko'rish talab qilinadi. Savdoda sotuvchiga shirinso'zlik, xushmuomalalik, hozirjavoblik, istarasi issikdik, so'zamollik kabi umuminsoniy hislatlar xos bo'lishi kerak.

Boshlovchi: Mana, hurmatli anjumanimiz qatnashchilari, yuqoridagi kasb egalaringning fikrmulohazalari va tajribalari bilan tanishdik.

YOyuchlarni ishlashda nimalarga e'tibor berish, ularni qanday tejab ishlatish kerakligini bilib oldik.

YUqorida uchala kasb ham bir-biriga juda bog'likdigi, o'lkashunos tadbirkorsiz, tadbirkor duradgorsiz o'z faoliyatini yurita olmasligining guvohi bo'ldik.

SHu tarzda darsda aytilgan fikrlar umumlashtiriladi. Kasblarning ajralmas uzviy aloqadorligi ularning faoliyatlari misolida ko'rsatib beriladi.

Mexnat ta'limiga oid mashg'ulotlarda konferensiya darsini tashkil etish va o'tkazish jarayonida quyidagi peda-gogik vazifalar hal etiladi:

1. O'quvchilarning mehnat ta'limiga oid nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.
2. Kasblar xususiyatini farqlay bilishga o'rgatish orqali ularni turli kasblarni to'g'ri tanlashga yo'nalti-rish.
3. Fanlararo aloqalarni uzviy o'rgatish.
4. Unumli mehnat qilib, yuqori samaradorlikka erishishni o'rgatish.
5. Ekologik, iqtisodiy tarbiya berish.
6. Mulohaza yuritish, fikrlash, xulosa chikara olish malakalarini hosil qilishga o'rgatish.
7. Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish kunikmasini hosil qilish.
8. O'quvchilarda bilish imkoniyatlarining cheksizligiga, o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qildirish.

Konferensiya darsi jarayonida o'quvchilar faol ishtirok etadilar. YUqoridagi dars jarayonida ishtirok etgan uch gurux o'quvchilari bir-birlari bilan fikr almashishlari natijasida kasb-hunarga qizikishlari ortadi.

O'quvchilar konferensiya darsida o'zlari yoqtirgan kasb kishilari qiyofasi va holatiga kirib, ziyraklik, chakdonlik, hozirjavoblik, bardoshlilik, tadbirkorlik vaziyatlari va ishbilarmonlik hislatini namoyish qiladilar. Bunday darslar o'quvchining kichik-kichik hajmdagi ilmiy ishlar qilish uchun bosilgan dastlabki qadamlari ham bo'lishi mumkin.

Bunday konferensiya darslari boshka sinflarda o'tkazilsa ham o'zining ijobiy natijalarini beradi.

3.2. Mashg'ulotlarni rolli sahnalashtirish

Ma'lumki, metallar turmushda va sanoatda eng ko'p ishlatiladigan materiallardir. SHu sababli o'quvchilarga metallar va metall qotishmalari, ularning fizik va mexanik xususiyatlari, ishlatilish sohalari hakida kengroq ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi o'quvchilarni metallar bilan tanishtirishda og'zaki bayon bilan chegaralanib qolmay, darsni qiziqarli va faol tarzda amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu vazifalarni rolli sahnalashtirish metodi yordamida quyidagi boskichlarda amalga oshirish mumkin:

1. *Tashkshshy ishlar.* Avvalo bir nechta o'quvchiga metall qotishmalarining turlari bittadan bo'lib beriladi hamda ularga «Siz mana shu metall turini yaxshilab o'rganib, uning timsoliga kirasiz va uni sharhdab berasiz», - deb o'qtiriladi. So'ngra ko'rinish o'tkaziladigan joy jihozlanadi. Metallar hamda ulardan yasaladigan buyumlardan namunalar, metallar hakida ma'lumot beruvchi turli ko'rgazmalar tayyorlanadi. Turli metallar timsolida chiquvchilar tarkibi belgilanadi.

2. *Asosiy qism.* Sarik. chakmon kiygan nuroniy qiyofali bitta o'quvchi ruda — ma'dan timsolida chiqadi va ko'rinish (mashg'ulot, sahna)ni boshqaradi. Sahnaning bir tomonidan yarim doyra bo'lib turishgan turli metallar tim-solidagi

o'quvchilarga sahnaning ikkinchi tomonidan ruda timsolidagi o'quvchi yaqinlashib keladi va tomoshabin — o'quvchilarga qarab shunday deydi:

- Assalomu alaykum, qadrdonlarim! Sizlar xilma-xil rangdagi bu kiyimlarni kiyib, yasanib olganlarni taniysizlarmi? Meni-chi? Yo'q! — deysizlarmi? Unda avvalo o'zimni tanishtiray. Men — ruda, yani ma'dan bo'laman. Men er osti va mog' jinslari orasida yashayman, mening yoshim, o'h-ho', million yillarga tengdir. Bu erga meni tinib-tinchimas konchilar olib kelishdi. Ular meni tegirmonga solib, juda ko'p foydali metallar olishlari mumkinligini aytishdi. Ex, ular meni qazib olish uchun ozmuncha urinishdimi?! *Tog'larni* portlatib, ekskavatorlar yordamida mashinalarga ortib meni bu erlarga olib kelishdi. Xullas, bu ishlarning sarguzashti uzok. Sizlar ko'rib turgan mana bular esa mening farzandlarim, nabiralarim. Ruxsatingiz bilan endi navbatni ularga bersam. Ular ham o'zlarini tanishtirishsin.

„SHunda qora tUSDagi CHuyan so'z boshlaydi:

- Men sanoatda ko'p ishlatiladigan qotishma — CHo'yan bo'laman. Mening rangimni ko'rib turibsizlar, qora rangdaman. Temir va uglerod qotishmalaridan tashkil topganman. Mendagi uglerod miqdori 2-4 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari tanamda (tarkibimda) kremniy, marganets, fosfor, oltingugurt kabi moddalar ham bor. Men qattiq va og'ir metallman. Lekin bitta kamchiligim bor. Men hazilni ko'tara olmayman, ancha mo'rtman. SHu sababli mendan keskin zarba tushmaydigan buyumlar tayyorlanadi. Turli isitish pechkalari, dastgohlarning asoslari va boshqa shu kabilarni mendan tayyorlashadi. Hali aytganimday, bunday buyumlarni bolg'a bilan urib hazillashmang, aks holda arazlab, sochilib ketaman.

SHundan so'ng Po'lat so'zga kiradi:

- Hoy akaginam, CHo'yan, meni esingdan chiqarib qo'ydingmi? Axir biz bitta oiladanmiz, qora metallar sulolasidanmiz-ku! (tamoshabinlarga yuzlanadi). SHuning uchun tarkibimiz, fe'l-atvorimiz ham yaqin. Mening tarkibimda 2 foizgacha uglerod bo'ladi. Men xam CHo'yanga o'xshab juda qattiqman, biroq mo'rt emasman, egilaman, bukilaman, ammo darrov sinmayman. SHuning uchun meni bolg'alash va kesish usullarda ishlov berish mumkin. Biz Pulatlar Ma'dan

bobomiz aytganlaridek, turli-tuman ko‘rinishdamiz. Masalan, mening yumshok, qattik, keskir, zanglamaydigan hususiyatlarga ega bo‘lgan do‘stlarim bor. Bizlardan tunukalar, simlar, quvurlar, mixlar, turli asboblari, keskichlar va shu kabi boshqa narsalar tayyorlashadi (stoldan ayrim buyumlarni olib ko‘rsatadi). Men ham maqtansam bo‘ladi. Chunki yaxshi hususiyatlarimiz ko‘p. Masalan, issiqqa bardoshimiz kuchli, elektr tokini yaxshi o‘tkazamiz, kislotada erimaymiz, ayrimlarimiz hatto zanglamaymiz ham. Bizning bobokalonimiz temir rudasi bo‘ladi. Uni to‘plab pechlarda eritishadi, maxsus qoliplardan o‘tkazib, turli navli prokatlar hosil qilishadi (plakatdan ko‘rsatadi). Bu ishlarni konchilar va degrezlar amalga oshiradilar.

Ruda:

- Mana, sizlar qora metallar oilasi bilan tanishdingiz. Bizning ikkinchi oilamizni rangli metallar tashkil etadi. Navbat rangli metallarga. Marhamat!

Alyuminiy:

- Mening ismim Alyuminiy. Rangli metallar oilasining a‘zosiman. O‘zim aslida oppok bo‘laman. Lekin havoda oksidlanishim tufayli yuzimni qoramtir rang ham qoplab oladi. Men unchalik qattiq emasman, zichligim kam bo‘lganidan mendan presslash, shtampovkalash usulida osongina ko‘plab buyumlar yasash mumkin (olib ko‘rsatadi). Ayniqsa, elektr o‘tkazgich simlar tayyorlashda asosiy o‘rinni egallayman. Uzilib ketmasin deb, bir necha tolalarni eshib elektr simlari tayyorlashadi, hatto atrofimizni po‘lat tolalari bilan o‘rab qo‘yishadi. Bu ham bizga bo‘lgan bir xurmat-da. Vaznim engilligi uchun meni mashinasozlik, kemasozlik, samolyotsozlikda ham sevib ishlatishadi. Tarkibimga biroz qalay va shu kabilardan qo‘shib, qozon, choynak, hammo ichki yonuv dvigatellarini tayyorlashadi.

Sahdada ufqday qip-qizil Mis paydo bo‘ladi. Mis: -Hoy o‘rtoqjon, o‘zingni juda ham maqtab yubording-ku! O‘sha sen o‘tkazadigan elektr tokini men ishlab beraman-a! Elektr toki hosil kiluvchi mashinalarning yakorlari, cho‘lg‘amlarini mendan tayyorlashadi. Senga qaraganda vaznim ham, zichligim ham yuqori. SHu sababli mendan qumg‘on, laganlar ham yasaganlar. Endi, o‘rtokjon, menda ham bitta katta kamchilik bor. Sening oppoq yuzing havoda qorayib qolganidek,

mening ham qip-qizil yuzim qoramtir bo'lib qoladi. Mendan qilingan tovoqlarda issiqqina palovxonto'rani ham eb bulmaydi-da, afsus! CHunki zahrim chiqib qoladi-da! Bronza:

- Ko'p kuyinmang, Mis aka. Mana sizga yordam beruvchi biz ukalaringiz Bronza bilan Latun doim yoningizdamiz. Kichik ukangiz Latunning ham texnikadagi hizmatlari beqiyos. U ishqalanuvchi yuzalarni tekis, silliq harakatlanishini ta'minlaydi. Mendan esa turli nishonlar tayyorlashadi va ko'kraklariga taqib, maqtanib yurishadi.

Oppoq, yaltiroq rangli Qalay gapga aralashadi. Qapay:

- Endi, og'aynijonlar! Men sof, hakikiy qalayman. Men tez eruvchanman. SHu sababli men turli radio sxemalarda kavsharlovchi, ya'ni biriktiruvchi sifatida ishlatilaman. Mana, men yaxshi bukulaman (o'quvchi qul, oyoq va bel bo'g'inlarini harakatga keltiradi). Bo'g'inlarimga e'tibor bering, bukilganimda qirsillaydi. Haqiqiy qalaylargina shunday ovoz chiqaradi. Begona jinslar aralashmagan qalaylar shunday bo'ladi. Meni tanlashda adashmang, ayniksa, Qo'rg'oshinga aralashmang. CHunki Qo'ryushin bilan o'xshash tomonlarimiz ko'p (Qo'rg'oshin tomoq qirib ko'yadi). Endi, og'aynilar, yana bir sirni ochaylik. Agar mendan alyuminiyga biroz qo'shilsa, dyuralyuminiy, misga qo'shganda esa, bronza hosil bo'ladi. Demak, mening ham qadrim, o'rnim chakki emas!

Suhbatga Ruh aralashadi . Ruh;

- Men ham rangli metallar oilasiga mansubman. Rangim havorang oq. Singan joyim esa yaltirok oq kristallar ko'rinishida. Men zanglamayman. SHuning uchun po'lat tunukalar sirtiga himoya vositasi sifatida meni qoplashadi. Mendan tunukaso'zlar chelak, tog'ora kabi ro'zror buyumlari ham tayyorlashadi (olib ko'rsatadi).

Ruda:

- Hurmatli tolibi ilmlar! Mana siz bir qator metallar bilan tanishdingiz. Ularning ypyg'-aymoklari ko'p, hammalari bilan batafsil tanishib ulgurmaymiz. Hu ana, bir to'p bo'lib turganlarni ko'ryapsizmi? (saxna chetida doyra bo'lib turganlarni ko'rsatadi. Doira markazida oq va sariq yaltiroq kiyimli o'quvchilar

bor. Ularning atrofini kulrang kiyimli o'quvchilar o'rab olgan). Doira ichidagilar nodir, kimmatbaho metallar — kumush, oltin va platinalardir. Ular nihoyatda qimmatbaxo bo'lganliklari uchun atrofiga soqchilar qo'yib qo'ydik. Aks holda o'g'irlab ketishlari mumkin-da. Bu hazil, albatta. Buni ramziy ma'noda tushunmoq kerak.

Endi ochig'ini aytganda, hunar ham katta ilm. Siz mana shu metall materiallardan biror foydali buyumlar tayyorlamokchi yoki ulardan tayyorlangan buyumlardan foydalanmoqchi bo'lsangiz, ularning o'ziga xos fe'l-atvori, ya'ni hususiyatlarini bilishingiz, ularga mos holda ish ko'rishingiz zarur. Aks holda ishingiz yurishmaydi. YUkorida bu hususiyatlarning ayrimlari bilan tanishdingiz. Endi men sizlarga metallarning asosiy hossalari yana bir bor eslatib o'taman:

1 — xossa. Qattiklik. Bu metallarning boshqa qattik jismga nisbatan qarshilik ko'rsata olish hususiyati.

2 - xossa. Qayishqoqliq va elastiklik. Metallarning tashqi kuch ta'siridan so'ng o'z holatini saqlab qolish hususiyati.

3 - xossa. Plastiklik va mo'rtlik. Metallarning tashqi kuch ta'sirida shaklini o'zgartirishi, ya'ni sinish, darz ketish, parchalanish, ezilish, cho'zilish kabi hususiyatlari.

4 - xossa. Elektr va issiqlik o'tkazuvchanlik. SHuning uchun metall tayoklar (masalan, truba, armatura va hokazo)ni elektr simlariga tegizib bo'lmaydi, tandirga kosov qilinmaydi va hokazo.

Umuman olganda, metallarning hossalari ko'p. Ular odatda fizik, kimyoviy va mexanik xossalar deyiladi.

SHuning bilan bugungi uchrashuv - tanishtiruv mashg'ulotimiz tamom. Ustaxonalarda uchrashguncha hayr, aziz-lar!

Mehnat va kasb-hunarga oid mashg'ulotlarda bunday rolli saxnalashtirishlar orkali o'quvchilarga mavzuni jon

li, ta'sirchan, puxta etkazish imkoniyatlari mavjud. SHuningdek, bunda o'quvchilar va talabalarning mustakil ishlash, uz fikrlarini erkin va atroflicha bayon qilish qobiliyatlari ham rivojlanadi.

3.3. Mehnat va kasbga yo'naltirishning ilg'or shakllari

Topqirlik darsi. Mehnat ta'limida kasbga yo'naltirish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustakil, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullaridan biri topqirlik darslarini tashkil etishdir. Masalan, V-VH sinflardagi mehnat ta'limi darslarida buni quyidagicha amalga oshirsa bo'ladi. Misol tariqasida "YOg'ochlarga ishlov berilgan ishlatiladigan ish va o'lchov asboblari o'rganish" mavzusini olaylik. Rejaga muvofiq mag'ulotlar 4 soatga mo'ljallangan. O'qituvchi o'quvchilarga mavzuga oid tushunchalarni berib, olgan bilimlarini takrorlash va mustaxkamlash jarayonida topqirlik darsidan foydalanadi. Bunda o'qituvchi: - Qani, o'quvchilar, hozir biz sizlar bilan ajoyib o'yin o'ynaymiz. **O'yinimiz sharti quyidagicha:** barchamiz ikki guruhga ajralamiz:

1-gurux nomi - quruvchi duradgor.

2-gurux nomi - mebelsoz duradgor.


Men sizlarga bitta-bittadan asboblarning tasviri tushirilgan rasmni ko'rsataman. E'tibor qiling! Rasm teng bo'laklarga ajratilib, raqamlar bilan ifodalangan. Raqamlar siz topishingiz kerak bo'lgan so'zlarning birinchi harfi boshlanishini bildiradi. Hushyor bo'ling! Qaysi asbob tasviri tushirilgan bo'lsa shunga oid ma'lumotlar so'raladi. Topqirlar, kim topsa, ishora qiling aytishga va yozishga ruhsat olasiz, - deydi. , 1-misol (1-rasm).

O'qituvchi **bolg'a** tasviri tushirilgan rasmni havola qiladi.

Bo'yiga:

1. Bolg'a muhrasi qaysi markali po'latdan tayyorlandi?

2. Muhraning tuzilishi qanday shaklda?



SHunda bolalar birin-ketin izlana boshlaydilar. O'qituvchi bularni eshitib, kuzatib boradi. Guruhdardagi a'zolar bir-biri bilan maslahatlashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Har bir javob uchun belgilangan ballar qo'iib boriladi. Tasvirda berilgan shartlar, savollarga javoblar to-pilgach, guruharning yiqqan ballari e'lon qilinadi.

Xulosalanadi: Demak, 1-shart - U7.

2 - shart - kvadrat.

3 - shart - temirchilik. Mustahkamlash: 1. U7 nimani ifodalaydi?

2. Muhra tuzilishiga ko'ra necha xil bo'ladi?

3. Metallarga ishlov beruvchi kasb turlari necha xil?

Bunday misollarni ko'plab topish va foydalanish mumkin

Morfologik jadval usuli. Ma'lumki, mehnat ta'limidan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar kasbga yunaltirish ishlarini tashkil qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda o'quvchilar turli xil buyumlarni yasash buyicha amaliy mashqlar bajaradilar. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilarni milliy xalq amaliy san'ati namunalari bilan tanishtirish, ijodiy-amaliy ishlarni tashkil etish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ijodiy ixtirochilik ko'rinishidagi masalalarni echishning 40 dan ortiq usullari ishlab chiqilgan bo'lib, shulardan biri morfologik analiz va sintez usulidir. Bu usul o'zining soddaligi, o'quvchilarning yosh hususiyatlariga mos kelishi bilan ajralib turadi. Bizning mehnat darslarida amalga oshirgan pedagogik tajribalarimizdan shu narsa aniqlandiki, bu usul berilgan biror turdagi buyumlarni yasashda o'quvchilarni kam vaqt sarflab, o'zlariga ma'qul bo'lgan ko'rinishni tanlab olishlarida, ularni boshqalari bilan taqqoslab ko'rishlarida juda qo'l kelar ekan. Hozir biz ana shu usuldan foydalanish hakida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Aytaylik, bizga telefon qo'yish uchun manzarali stolcha tayyorlash vazifasi berilgan bo'lsin. Bunday stolchalarni turli xil ko'rinishlarda tayyorlash mumkin.

1-bosqich. Bunda masala shartini tahlil qilgan holda tayyorlanishi talab etilgan stolchanning qanday qismlardan tuzilishi, bu qismlarning materiali, shakli, bezatilishi qanday bo'lishi kerakligi tahdil qilinib, aniqlab olinadi. SHundan so'ng aniqdangan ma'lumotlardan foydalanishni osonlashtirish uchun mahsus morfologik jadval tuziladi.

Telefon qo'yish uchun shakldor stolcha yasashga oid morfologik jadval

Muqobil ko'rinishlari.					
Stolcha qismlari	1	2	3	4	5
I. Ustki taxtasi	Taxta	Plastmassa	Metall	Faner 6	Oyna yoki
1. Materiali	YUmayaoq.	Ovalsimon	5 qirra Rasm	qirra	sopol 8 qirra
2. SHakli	Rasmsiz	Rasm	o'yilgan	Inkurs-	Rasmsiz
3. Bezatilishi		chizilgan		tatsiya	
				qiilingan	
II. Asosi (ustunchasi)	YOg'och (taxta)	Plastmassa 3 qirra	Metall 4 qirra Rasm	Suniy oyna 6 Rasm	Faner 8 qirra
1. Materiali	Dumaloq	SHakldor	o'yilgan	chizilgan	Inkursta-
2. SHakli	SHaklsiz				siyalangan
3. Bezatilishi	silliq.				
III. Oyoqlari	YOg'och (taxta)	Plastmassa 3 qirra Tug'ri	Metall 4 qirra Turri	Suniy oyna 6 qirra	Faner 8 qirra
1. Materiali	Dumaloq.	shakldor	rasm	Tug'ri	To'g'ri
2. SHakli	YOysimon		chizilgan	rasm	Inkrustatsiyal
3. Bezatilishi	Rasmsiz			o'yilgan	angan
IV. Qo'shimcha vazifasi:	Gul qo'yish uchun	Daftar va ruchka	Kitob qo'yish	SHaxmat qo'yish	Boshqa narsalarni

		qo'yish uchun	uchun	uchun	qo'yish uchun
--	--	------------------	-------	-------	---------------

Mazkur holatda jadval masalani echishdagi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi .
SHu sababli uni tuzishga alohida e'tibor berish zarur. Jadvalga buyumning (bizning misolimizda - stolchaning) qismlari: materiali, shakli, bezatilishi kabilar alohida ustunchada, ularga oid ma'lumotlar esa muqobil ko'rinishlarda boshqa ustunchalarda ko'rsatiladi.

2-bosqich. Jadval zaruriy ma'lumotlar bilan tuldirlgach, har bir o'quvchi o'ziga ma'qul bo'lgan ko'rinishdagi stolchani tanlaydi.

3-bosqich. O'quvchilar o'zlari ma'qul ko'rgan ko'rinishdagi stolchani tanlab olganlaridan so'ng, endi uni tayyorlashga kirishadilar.

Ko'rinib turibdiki, mehnat ta'limi darslarida bunday morfologik jadvallardan foydalanish o'quvchilarning vaqtini tejashga, dunyoqarashini kengaytirishga, ularning ijodiy-amaliy faoliyatlarini tasodifiy emas, balki ma'lum yo'nalishlar bo'yicha tashkil etishga, ayni bir hil masalani bir necha xil ko'rinishda echish mumkinligini ko'rsatishga imkon beradi.

Katta o'lchamli A4 formatli qog'ozga istalgan buyumni tayyorlash yuzasidan bunday jadvallar chizib, ulardan ta'lim jarayonida foydalanish mumkin.

Turli boshqotirmalardan foydalanish

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli xil o'yinlarni tashkil qilish mumkin. SHunday o'yinlardan biri boshqotirma o'yinidir.

Bu o'yinni tashkil qilish uchun o'qituvchi tomonidan yozuv taxtasiga boshqotirma jadvali chiziladi va qatorlar raqamlar bilan belgilab chiqiladi (yoki plakat kqrinishida chizib tayyorlab olinadi). Masalan:

	1		6			
2						
	3					
		, 4				
5						

Ushbu qatordagi so'zlarni topish uchun quyidagicha savollar tuziladi:

Eniga: 1. Qishin-yozin bir xil kiyimda.

2. Tez o'sadigan terak nomi.

3. YOg'och sirtiga ishlov beruvchi asbob.

4. YOg'och materiallarini yorishda ishlatiladigan asbob.

5. Qurilishda ko'p ishlatiladigan yog'och materiali.

Buyiga: 6. Eng uzoq yashaydigan daraxt.

SHu savollar bilan o'quvchilarga murojaat qilinadi. Javobini topgan o'quvchilar qo'l ko'tarib javob berishadi va javob bergan o'quvchi yozuv taxtasiga so'zni yozadi.

O'quvchilar tomonidan topilgan so'zlarning harflari kataklarga mos tushishi lozim. SHu tarika o'yin davom etadi va boshqotirmadagi barcha kataklar so'zlar bilan to'ldiriladi.

Bundan tashqari, amaliy mashgʻulotlarda oʻquvchilar bilimini oshirish uchun turli xil topishmoq, tez aytish kabilardan foydalanish mumkin.

Mehnat taʼlimiga oid topishmoqdar yoki mehnat darslarida ishlatiladigan asboblarning toʻgʻrisidagi topishmoqdar oʻqituvchi tomonidan berilishi yoki oʻquvchilarning oʻzlari bir birlariga berishlari mumkin. Javobini toʻgʻri topgan oʻquvchilar dars davomida baholab boriladi.

Amaliy mashgʻulotlarda quyidagi topishmoqdardan foydalanish mumkin:

Gir-gir deydi girillaydi,

Kesgan joyi zirillaydi. (arra)

Duradgorlar yasaydi,

Non yuzini bezaydi. (chekich)

Dars oxirida oʻquvchilarga uyga vazifa sifatida turli xil topishmoqdar va boshqirtirmalar topib kelishni topshirish maqsadga muvofiqdir.

Auksion dars

Oʻquvchilarni kasb tanlashga yullashga oid mashgʻulotlarning samaradorligini oshirishdagi qulay usullardan biri auksion darsdir. Auksion darsni "Traktorlar va qishlok xoʻjaligi mashinalari" faniga oid "Pluglar, ularning tuzilishi va turlari" mavzusi misolida koʻrib oʻtaylik.

Oʻqituvchi auksionni boshqaruvchi rais vazifasini bajaradi. Bir necha oʻquvchilar ishlab chiqarish korxonalarining savdo vakillari, qolgan oʻquvchilar esa haridorlar boʻlishadi. Oʻqituvchi darsni tashkillashtirgach auksionni ochib beradi.

"Hurmami haridorlar! Bugungi auksionimizga erga ishlov berish uchun moʻljallangan turli hil plugimiz qoʻyilgan. Bu pluglarni sotib olib, siz ham ishonchli texnikaga ega boʻlasiz, ham moʻl hosil uchun zamin yaratasisiz. Barchalaringizga omad tilaymiz! Pluglar hakida ishlab chiqarish korxonalarining savdo vakillari maʼlumot berishadi. Marhamat!"

Bir oʻquvchi sahnaga chiqib rasm, plakat hamda diaproyektorlar yordamida plutni taʼriflab beradi:

- Hurmatli haridorlar! Sizlarga tavsiya etmoqchi bo'lgan plugimiz PL-3-35 osma plugidir. Bu plugimiz texnik don ekinlaridan bo'lnagan maydonlarni 30 sm gacha cho'qurlikda haydashga mo'ljallangan bo'lib, u yig'ma rama, 3 ta korpus, 3 ta simqir qar disksimon pichoq, tayanch g'ildirak, o'rnatish qurilmasi va chuqurlik rostlagichlaridan tuzilgan. Rama madaniy, yarim vintsimon, vintsimon va kesma shaklli lemexlarni o'rnatish uchun moslangan. Tayanch gidirakka haydash chuqurligini belgilovchi mahsus shkala o'rnatilgan. Plugning korpuslari legirlangan yuqori si-fatli po'latlardan tayyorlangan.

Plugning texnik tavsifnomasi quyidagicha: qamrov kengligi 0,9 dan 1,05m gacha, ish unumdorligi soatiga 1,1 gektargacha, ish tezligi 7-10 km/soat, yo'l tirkishi 21,00 mm, gabarit o'lchamlari 2650x1420x1270 mm, massasi - 522 kg. Bu plugni TZ-80, MTZ-82, YUMZ-6L/M turidagi traktorlarga o'rnatish mumkin. Ishga tushirilgan kundan boshlab 5 yil gacha sifatli ishlashiga kafolat beriladi. Xaridorlar tezkor madaniy, yarim vintsimon va tuprok. chuqurlikchilar bilan jiyorzlangan pluglarni tanlashlari ham mumkin.

SHundan so'ng auqsion raisi o'qituvchi ikkinchi o'quvchini, ya'ni ikkinchi ishlab chiqarish korxonasi savdo vakilini taklif etadi. SHu tarika 4-5 o'quvchi turli markadagi pluglarni ta'riflab berishadi.

Bunda mavzuga oid o'quv filmlari, plakatlar va fotosuratlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Auqsion turkumiga kiruvchi darslardan yana biri bozordagi savdosotik ishlaridan foydalanishga oid sahna ko'rinishidagi darsni tashkil etish va o'tkazishdir.

Bunday darsda sinf o'quvchilari 3-4 guruxga ajratiladi va shu guruhdarning har biriga bog'lik bo'lgan ishlar va vazifalar topshiriladi, ya'ni menejment, o'rinbosar va nazoratchi tayinlanadi. Mana shu "mas'ul shaxslar" boshchi-ligida guruhdar o'z savdo rastalarini to'ldirishga, mahsulotlarini reklama qilishga va ularni sotishga harakat qilishadi. Misol uchun birinchi gurux kashtachilar, ikkinchi gurux tikuvchilar va uchinchi gurux duradgorlardan iborat bo'lishi mumkin.

Savdo rastalariga turli buyumlar qo'yiladi. Bunda kashtachi guruh o'quvchilari o'zlari tikkan kashtalarni, rumolchalarni, turli va turli xil naqshlar bilan bezatilgan mahsulotlarini, tikuvchi guruh o'quvchilari turli xil yumshok o'yinchoqdarni, ko'g'irchokdar uchun ko'ylak va yubkalarni, dasturxon va sochiqdarni, duradgor o'quvchilar esa turli shakllardagi o'yinchokdarni, uyruzg'or buyumlari: manzarali guldon, qalamdonlarni, taxtakash va jo'valarni sotishlari mumkin.

Mahsulotlarni sotish uchun ular avvalo mahsulotlarini reklama qilishlari va haridor chaqirishlari lozim. Reklama qilishda o'quvchilar turli xil devoriy gazetalardan va mahsulot namunalariidan foydalanishlari mumkin. Ehtiyoj tug'lsa, guruhdar vizit qog'ozlari ham tayyorlaydilar.

Mahsulotlarni xarid kilishda nafakat o'quvchilar balki o'qituvchilar ham bevosita qatnashishlari mumkin.

O'quvchilarning faoliyatini baholashda ularning qanchalik ko'p mahsulot tayyorlaganliklari, mahsulotlarni reklama qilish va sotish qobipiyati, shuningdek, o'quvchilarni haridorlar bilan muomalasi e'tiborga olinadi.

YUqori sinf o'quvchilari o'rtasida auksion darsini tashkil qilishda sotuvchilar harid qilingan mahsulotni o'rab berishlari yoki ko'prok. harid qilganlarga qo'shimcha ravishda kichik sovg'alarni ham qo'shib berishlari mag'shulotning qizikarli o'tishiga yordam beradi.

Trening darslari

Darslarda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashda hamda dars samaradorligini oshirishda trening darslarining katta imkoniyatlari mavjud.

Trening darslari qayta **aloqa** asosida olib boriladi. YA'ni o'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini bilib, bilim-larini yanada boyitib o'zlariga qaytarib beradi. Dars davomida faqat o'qituvchi ishlamasdan o'quvchilar ham tengma-teng ishlaydilar.

Bu usulda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida erkin munosabatlar vujudga keladi va o'quvchilar erkin, mustaqil fikrlay boshlaydilar. O'quvchilar o'zlarini erkin his qilib, erkin fikrlay boshlaganlaridan so'ng bilimlarni qabul qilish imkoniyati ham kengayadi. Demak o'qituvchi bermoqchi bo'lgan bilimlarni to'liq bera oladi.

Trening darslar davomida tartibbuzarliklar, o'zaro suhbatlashib halaqit berishlarning oldini olish uchun o'quvchilar bilan birgalikda mashg'ulotlarda amal qilinishi lozim bo'lgan tartib qoidalarni ishlab chiqish va hammaga ko'rinadigan joyga ilib qo'yish mumkin.

SHuningdek, fanga aloqador bo'lgan turli xil o'yinlarni tashkil qilish dars samaradorligini yanada oshiradi. Bunday o'yinlar o'quvchilar charchokni his qilgan vaqtlarda o'tkazilsa maqsadga muvofik bo'ladi. O'quvchilar tetiklashadilar, fikrlari bir nuqtaga jamlanadi.

Mazkur darslarning samarali tomonlaridan yana biri nazariy ma'lumotlar bilan amaliy mashg'ulotlar birgalikda olib borilishidir. O'quvchilar kichik guruhlarda ishlab, olgan nazariy bilimlarini amalda sinab ko'radilar. Misol qilib, iqtisod fanidan «Bozor tushunchasi» mavzusi asosida tashkil qilingan trening darsni keltiraylik:

Mashg'ulotni o'qituvchi aqliy hujum usuli bilan boshlaydi: «Bozor deganda nimani tushunasiz?»

O'quvchilarning javoblari doskaga yoziladi va tayanch so'zlar tagiga chizilib, umumiy qoidalar ishlab chiqiladi: «Bozor sotuvchi bilan oluvchi o'rtasidaga vosita».

SHundan so'ng o'qituvchi bozor turlari tug'risida batafsil gapirib beradi.

O'qituvchi so'raydi: «Bozorda qanday holatlar bo'ladi? Bozorga mahsulot olib chiqishdan oldin nimalarga e'tibor berish lozim?»

Bozorda raqobat, sotish va sotib olish kabi holatlar bo'ladi. Mahsulotni sotishdan yoki ishlab chiqarishdan oldin talab va taklif o'rganiladi.

O'quvchilar bozor tug'risida kengroq tushuichaga ega bo'lishlari uchun «Bozordagi holat» nomli o'yin olib bori-ladi. Buning uchun sinfdagi o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Birinchi va ikkinchi guruh kanselyariya mahsulotlari, uchinchi

g'uyh esa darsliklar ishlab chiqarib, reklama asosida sotishlari lozim bo'ladi. O'z mahsulotini yaxshi reklama qilgan guruh g'olib bo'ladi.

SHundan so'ng birinchi va ikkinchi gurux o'z mahsulotlarini (sinfda bor mahsulotlardan kelib chikdan holda) sotadilar. Uchinchi guruh esa o'qituvchi tomonidan tarqatib berilgan shartli (yasama) pullar asosida mahsulotlarni sotib oladilar. Bunda «xaridorlar» qancha ko'p mahsulot sotib olsalar, «sotuvchilar» esa qancha ko'p sotsalar g'olib hisoblanadilar.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilardan o'yin davomida nimalarni his qilganliklarini, xayotda nimalarga e'tibor berish lozim ekanligini so'raydi va umumiy xulosa chiqariladi.

Ushbu trening usuldagi mashg'ulotlar o'quvchining erkin fikrlashiga, o'z mulohazalarini kichik guruxdar orasi-da bemalol ayta olishiga imkoniyat yaratadi. Demak trening darslarining samaradorligi yuqori bo'lib, boshqa qator fanlarda ham bu usuldan foydalanish mumkin.

Xulosa

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchilar mehnat va kasb tarbiyasiga ham taaluqlidir. Insonning mehnat imkoniyatlari ro'yobga chiqarish uchun eng avvalo unda ilk mehnat ko'nikmalarini, kasb tasavvurlarini tarkib toptirish zarur. Buni amalga oshirish uchun esa dastlab oilada mehnat tarbiyasiga moss hart-sharoitni yuzaga keltirish kerak. O'quvchi kelajakda biror kasb bo'yicha yaxshi ishlashi uchun uni kichikligidan mehnat ko'nikmalarini o'rgatish, ko'niktirish hayotiy ahamiyatga ega. O'quvchidagi ko'nikmalar asta-sekin ko'payib biror kasbni egallashiga olib keladi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umumiy o'rta ta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ijtimoiy-pedagogik masaladir.

Bu jarayonda, birinchi navbatda, o'quvchilarning qobiliyatlari va mehnati jamiyat manfaatlariga mos tarzda hisobga olinishi lozim. Insonning ijtimoiy holati

dastlab uning ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi o'rnini bilan belgilanadi va bu holning asosiy belgisi mehnatning o'ziga xos xususiyati va ijtimoiy mohiyati hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish tizimi - shaxsga kasbni va uning shaxsiy sifatlarini o'rganishda yordam beruvchi maqsadlar, mohiyat va prinsiplar, uslub va vositalar barligidir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish barcha o'quv - tarbiya ishlari bilan bog'lab olib boriladi.

O'quvchilarda bo'lgan qiziqishlar o'z mohiyati jihatidan keng tarmoqli bo'lib, ularning shakllanishida maktab, ijtimoiy muhit, ota-ona, maktabdan tashqari muassasalar ta'siri alohida o'rin egallaydi. Qiziqishlarning rivojlanib-takomillashib, kasb tanlash darajasiga yetishi o'quvchining yosh xususiyatiga ham ko'p jihatdan bog'liq. O'quvchining yoshi ulg'aygan sari, unda bo'lgan qiziqishlar ma'lum bir tartibga tusha boshlaydi. U kasb tanlash darajasigacha o'sib boradi. Qiziqishning rivojlanishi va shakllanishi bajariladigan ishlarning xarakteriga ham bog'liq. O'quvchilar faoliyatida amaliy ishlar qanchalik ko'proq o'rinni egallasa, ularga bo'lgan qiziqish yanada ortadi.

Taklif va tavsiyalar.

1. O'quvchilarning kasb tanlashga yo'llanadigan ishlarga jamiyatdagi barcha bug'unlar, ota-onalar, maktab, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy o'quv yurtlari, mahalla, hokimiyatlar vakillar baravariga xizmat qilsa bu ish yanada samarali bo'ladi.
2. Ta'lim tizimida barcha muassasalar, fanlar va ularning o'qituvchilar va murabbiylar, sinf rahbarlari va rahbarlar, jamoatchilik organlari ishtirok etsa bu ish yanada takomillashadi.
3. Mehnat ta'limi mashg'ulotlari kasb tanlash ishlarida alohida o'rin tutadi, chunki 8-9 siflarda alohida maxsus o'quv kursi bor. (har sinfda 17 soatdan jami 34 soat).
4. Mehnat ta'limi ishlab chiqarishga eng yaqin fanlardan alohida o'rin tutadi, chunki uning barcha bosqichlari va yo'nalishlarida o'quvchilar kasblarga yo'naltiriladi.
5. O'quvchi – yoshlarning kasbga yo'nalishlari, shaxsiy qiziqishlari, intilishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

X u l o s a

Mamlakatimizdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasbga tayyorlashda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish muammolari tahlili uning uslubiy-pedagogik masala sifatida o'zining to'laqonli echimini topmaganligini ko'rsatdi. Bu yo'nalishning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar talablariga muvofiqligini ta'minlash uchun o'qitishga eng zamonaviy pedagogik tajribalarni qo'llash uslublarini ishlab chiqish, bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash, ularni ta'lim tizimiga joriy qilishning samarali shakllarini ishlab chiqish zarur.

Kasb tanlashga tayyorlash o'quvchilarning barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ijodkorlik qobiliyatlari, ko'nikma va shaxs xislatlarining shakllanishida muhim bosqich bo'lib, o'quv fanlari va to'garak mashg'ulotlariga ijodiy yondoshish, ta'lim jarayoni hamda kasbiy tarbiyani muammoli ta'lim asosida umumlashtirishga asos bo'ladi.

Islohotlar tufayli ta'lim tizimini ilg'or pedagogik tajribalarga asoslangan ishlanmalar bilan ta'minlanish darajasi tobora yahshilanib bormoqda. Bundan kelib chiqqan holda o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash ishlarini keng yo'lga qo'yishda darsdan tashqari ishlarni ularning kasbiy tarbiyasi bilan uyg'unlashgan holda tashkillashtirish lozim. SHu sababli, o'quvchilarni kasb-hunar ta'limiga yo'naltirish masalalarini muvvafoqiyatli hal qilishda o'quvchilar mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalarini uzviy aloqadorlikda, ularning kasbiy malaka va ko'nikmalarini yanada mukammal o'zlashtirishlariga xizmat qiluvchi faoliyat turi sifatida rivojlantirish ilmiy-metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'ladi

ADABIYOTLAR RUYXATI

- 1 Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.// -T.:”SHarq”, 1997. - 63 b.
- 2 Mehnat talimidan umumiy srta talim maktablari uchun davlat talim standartlari. “Ta'lim tarakkiyoti”, IV maxsus son, 1999 y.
- 3 Mehnat ta'limidan umumiy o'rta talim maktablari uchun dastur. “Ta'lim taraqqiyoti”, IV maxsus son. 1999 y.
- 4 O'.Q.Tolipov, D.N.Razzoqov, Q.Bobojonova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat talimidan davlat talim standartini amaliyotga joriy etish. Qo'llanma. Toshkent. 2000 y.
- 5 O'.Q.Tolipov. Umumiy o'rta talim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish. Metodik tavsiyanoma. Toshkent-2000 y.
- 6 U.N.Nishonaliev, O'.Q.Tolipov, SH.S.SHaripov, M.SHoymardonov Mehnat talimidan o'quvchilar bilimini nazorat qilishning reyting tizimi. Uslubiy qo'llanma. T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zPFITI. Toshkent-2001 yil.
- 7 Vorobev A.I. Mehnat politexnika talimi didaktikasi. T. «O'qituvchi», 1997 y.
- 8 Davlatov K.D. Me'nat va kasb talimi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. T.O'qituvchi. 1992 y.
- 9 Usmonov S.A. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish. T.O'qituvchi. 1987 y.
- 10 Boltaboev S., Mullaxmetov R.G., V.N.Sattorov. Kasb tanlashga yo'llash. Maruzalar matni. Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent-2000 y.
- 11 Mashg'ulotlarda yangi texnika va ilg'or texnologiya va uning ifodalanishi. [www Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).
- 12 Mehnat ta'limi fanida mavzu rejalashtirish, Mehnat fanidan ishlatilgan ish qurollari va xavfsizlik qoidalari. [www Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).

